

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

*qo'lyozma huquqida*  
*UDK 43*


**Sharipova Laylo Mehrojiddinovna**

**Ijtimoiy qatlam so'zlarining adabiy tilga ta'siri  
(Nemis tili misolida)**

**5A220100 Lingvistika (nemis tili)**

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya

Ilmiy rahbar: dots. Nazarov P.J.



**Samarqand - 2013**

## Mundarija

<b>Kirish</b> .....	3
<b>Birinchi bob. So'z qo'llashda nutq uslublarining roli</b> .....	3
1.1 Nutq uslublarining tavsifi.....	11
1.2 Ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslublarida so'z qo'llash.....	12
1.3 Badiiy va ommabob nutq uslublarida lug'aviy birliklardan foydalanish.....	15
1.4 Og'zaki so'zlashuv nutqiga xos unsurlar .....	17
<b>Birinchi bob bo'yicha xulosalar</b> .....	20
<b>Ikkinchi bob. Nemis adabiy tili va kundalik so'zlashuv nutqiga xos lug'aviy birliklarining derivatsion tarkibi</b> .....	22
2.1. Nemis adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari .....	22
2.2. Nemis dialektlarining tarixiy taraqqiyoti.....	23
2.3. Nemis tili so'zlashuv nutqining tipik belgilari.....	24
<b>Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar</b> .....	30
<b>Uchinchi bob. Zamonaviy nemis tili doirasida og'zaki so'zlashuv nutqi unsurlarining roli</b> .....	31
3.1. Nemis so'zlashuv nutqida so'zlardan foydalanish .....	31
3.2. Nemis so'zlashuv nutqi shakllanishiga boshqa tillardan o'zlashgan lug'aviy birliklarning ta'siri.....	60
3.3. Nemis yoshlari tilidagi lug'aviy birliklarning umumiy tavsifi .....	63
3.4. Nemis so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi boshqa leksik va frazeologik unsurlar .....	68
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	84
<b>XULOSA</b> .....	85
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....	90

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** Ma'lumki, Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgach, boshqa mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yish orqali dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin olish vazifasi Respublikamiz tashqi siyosatining bosh vazifasiga aylandi. Rivojlangan davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yanada kuchaytirish esa eng avvalo xorijiy tillarni bilish va ulardan samarali foydalanish masalasiga borib taqaladi. Shu boisdan muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov o'z asarlarida, joylarda qilgan chiqishlarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qonun va qarorlarda O'zbekistonda xorijiy tillarni o'rganish va o'rgatish masalasiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda.

Fikrimizning isboti sifatida 2012 yilning 16-17-fevral kunlari Toshkent shahrida o'tkazilgan xalqaro anjumanda yurtboshimiz I.A.Karimovning o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish yo'lidagi bosh vazifalarimizni ko'rsatib beruvchi nutqini keltirishimiz mumkin.

Osiyo Taraqqiyot Banki, Xalqaro Bank, Islom Taraqqiyot bankining bevosita rahnamoligida o'tkazilgan hamda 48 mamlakatdan tashrif buyurishgan ta'lim tizimidagi rahbarlar, yetuk mutaxassislar va taniqli olimlar ishtirokida o'tkazilgan “Подготовка образованного и интеллектуального развития поколения – как важнейшее условие устойчивого развития и модернизации стран” mavzusidagi mazkur xalqaro anjumanda prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan asosiy g'oya dunyo hamjamiyatida bo'layotgan voqea-hodisalarni keng qamrovda tushunib olish, jahon intellektual boyligini egallab boorish hamda chet ellik o'z tengdoshlari bilan faol muloqotga kirisha olish maqsadida chet tillarni majburiy o'rganish hamda bu borada zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishga e'tibor qaratishga yo'naltirilgani ham bejiz emas, albatta. (Qarang: “Народное слово” gazetasi, 2012 yil, 18-fevral)

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda, respublikamizda chet tillarni o'rganishga va bu tillardagi badiiy matnlar, ish hujjatlarini tushunishga va ularni o'z ona tilisiga tarjima qilishga hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan chet tillarni o'qitishda samarali foydalanishga jiddiy yondashish davri yetib kelganligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni", va mamlakatimizda uch bosqichli ko'rinishda hayotga tadbiq etilgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida faoliyat ko'rsatishni ta'lim tizimimizdagi asosiy yo'nalish sifatida qarab, o'sib kelayotgan yosh avlodga ingliz, nemis, frantsuz, italyan, ispan, rus, yapon, koreys, xitoy tillari kabi dunyo hamjamiyatida yetakchi bo'lgan xorijiy tillarni o'rgatishda, yoshlarning bu tillarda bevosita muloqotga kirisha olishlarida, bu tillardagi yozma va og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini tez sur'atlarda o'zlashtirib olishlarida munosib hissa qo'shish biz uchun ham o'ta mas'uliyatli vazifadir.

Albatta, ma'lum bir tilni chuqur o'rganishda bu tilning ichki va tashqi imkoniyatlari, ya'ni bu tildagi so'z yasalishi va so'z qo'llash hodisalari, boshqa tillar bilan o'zviy aloqasi, o'z ichki imkoniyatlari hamda tashqi manbalar asosida doimiy boyib borishiga ham katta e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Zero, tilshunoslik fanida so'zdan oqilona foydalanish, so'z yasash va so'z qo'llash masalasini tadqiq etish o'ta dolzarb muammolardan biridir. Chunki hoh ogzaki nutq jarayonida, hoh yozma nutq jarayonida yuzaga keluvchi har qanday jumla albatta tegishli lug'aviy birliklardan, ya'ni so'z va iboralardan tashkil topadi. Demak, ma'lum bir sintaktik bog'lanishlarga ega bo'lgan gap bo'laklari – ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol ham dastlab so'z, keyin esa so'z birikmalari orqali ifodalanadi. Jummalarda qatnashgan lug'aviy birliklar bizga fikrning kim tomonidan hamda uning qay tarzda, nima uchun bajarilishi to'g'risida ma'lumot beradi. Shu nuqtai nazardan ogzaki va yozma nutqda so'zlarning qo'llanishi o'z mohiyatiga ko'ra tilshunoslik fanida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda so'zning fonetik, leksik va sintaktik derivatsiyaga uchrash hodisasi adabiy tilning og'zaki va yozma ko'rinishidan ko'ra kundalik so'zlashuv nutqi

doirasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki so'zlarni o'zaro tarixiy-derivatsion nuqtai nazardan o'rgananimizda, har bir so'zdagi leksik m'anodan tashqari unda grammatik ma'no ham mavjudligi, bu grammatik ma'noning gap doirasidagi o'rni va vazifasi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligining guvohi bo'lamiz. Masalan, nemis tilidagi "abgemacht" so'zi hozirda shunday ham leksik, ham grammatik derivatsiyaga uchragan tushuncha sifatida talqin etiladi. Aslida bu so'z "abmachen" (1. etwas (von etwas) abmachen umg. etwas (von etwas) losen, entfernen: ein Schild, ein Plakat abmachen. 2. etwas mit jemandem besprechen und beschliessen (vereinbaren): Wir haben abgemacht, morgen ins Kino zu gehen. (9, 29.) fe'lining PartizipII shaklidan hosil bo'lgan bo'lib, ko'rinib turganidek u asosan gap doirasida ko'pincha bir tarkibli nominativ gap yoki so'z-gap kabi sintaktik vazifalarni bajaradigan so'zlashuv unsuriga aylangan. Ya'ni bu so'z sintaktik derivatsiyaga uchrab hozirgi nemis so'zlashuv nutqida quyidagi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi:

Abgemacht. (Bo'pti.)

Abgemacht. (Kelishdik, roziman.)

Yoki "End" (oxiri, tugash) so'zi yoshlar tilida qisqartma so'z vazifasini ham bajaradi va "axmoqdan boshqa hech narsa emas degan ma'noni anglatadi.

**Mavzuning ishlanganlik darajasi.** Bizga ma'lumki, nemis adabiy tili o'lkamizda uzoq vaqtlar davomida grammatik nuqtai nazardan o'rganilib kelindi. Shu sabab nemis adabiy tili grammatikasi ko'plab rus hamda o'zbek olimlari: jumladan V.G.Admoni, Y.Shendels, O.Moskalskaya, H.Quintin, T.Z.Mirsoatov, S.Saidov kabilarning asarlaridan o'rin oldi. Shuningdek, nemis olimlaridan Yakob Grimm, Adelung va Dudenlar so'zlarning grammatik qurilishi bo'yicha yetarlicha ma'lumotlarni kitobxonlarga tuhfa etishdi. Albatta bir qator ishlarda nutq uslublariga ham grammatika nuqtai nazardan yondashish ko'zga tashlanadi. Masalan rus olimlaridan V.S.Grigorieva (1984), L.N.Grigorieva, G.V.Snejenskaya (1988),

G.L.Denisova (1989) lar bir tarkibli gaplarning nutq uslublari bo'yicha qo'llanilishini tadqiq etishgan. Shuni ta'kidlab o'tishimiz kerakki, bu o'rinda uslubiy jihatdan asosan maxsus (masalan, texnika sohasidagi) matnlarda bir tarkibli gaplarning tutgan o'rni olimlarimizning e'tiborini ko'proq o'ziga qaratgan.

Yoki, badiiy matn doirasida ismlarning ifodalanishiga asoslangan, jumalarda gapning bir qismi ayiruvchi pauzadan keyinga, gapning tashqarisiga chiqariladigan parzellyatsiya hodisasi bo'yicha bir qator olimlar, jumladan, E.V.Guliga, V.V.Gavrilova, R.P.Lisichenko, A.M.Lomov, B.T.Tursunovlar salmoqli tadqiqotlar olib borishgan.

Biroq shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, tilshunoslikda nemis tilidagi so'zlarning fonetik, leksik va sintaktik derivatsiyaga uchrashi, so'zning nutq doirasida qo'llanilish shakllari borasida hozirga qadar yetarli miqdorda dissertatsiyalar, o'quv qo'llanmalari yaratilgan emas. Bu o'rinda faqat, o'zbek tilidagi so'zning ichki sintaktik derivatsiyalari haqidagi professor N.Q.Turniyozov boshchiligida faoliyat ko'rsatayotgan Samarqand Derivatalogiya maktabi namoyondalari ma'lum bir tadqiqot ishlari amalga oshirganligini e'tirof etish zarur.

Aynan nemis tilidagi so'zlarning leksik-semantik derivatsiyaga uchrashi to'g'risidagi yirik hajmli ilmiy-tadqiqot ishlarga bo'lgan ehtiyoj respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan so'ng o'zbek xalqi uchun jahonga yo'l ochilishi bilan yanada kuchaydi. Natijada bu borada ham ba'zi bir ilmiy tadqiqotlar ko'zga tashlana boshlandi. Masalan ilmiy rahbarimiz dots.P.Nazarovning keyingi yillarda yaratgan bir qator ilmiy maqolalari buning yaqqol isbotidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, 21-asrga kelib og'zaki va yozma nutq jarayonida so'z qo'llashdagi o'ziga xos xususiyatlar nemis olimlari tomonidan chuqur o'rganila boshlandi. Jumladan nemis olimlaridan H.Margot, P.Slobinski, E. Neuland, T.Becker kabilar nemis tilida nemis yoshlar nutqi lug'aviy birliklarining derivatsion qonun-qoidalariga katta qiziqish bildirishmoqda.

Til sathlari bir-biri bilan shunday bog'liqki, biror bir til sathi alohida tarzda

namoyon bo'lishi o'ta murakkab hodisa hisoblanadi. Jumladan tilshunoslikda etimologiyaning ham, leksikologiyaning ham, morfologiya yoki sintaksisning ham va hattoki orfografiya, orfoepiya, stilistikaning o'rganish obyektlari bevosita so'z bilan chambarchas bog'liqdir. Yani, tilshunoslikning har qanday sathida so'zning u yoki bu holatdagi ko'rinishi tadqiq etiladi. Agar fonetika so'zning tovush va harf shakli, so'zdagi unlining urg'u olish yoki olmasligi, so'zning bo'g'inlarga bo'linishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi hisoblansa, leksikologiyada so'zning ma'no munosabatiga ko'ra turlari, so'zning detonativ va kopnotativ ma'nolarini o'rganadi. Etimologiya esa so'zning tarixiy kelib chiqishini, morfemika so'zning morfem shakli o'rtasidagi munosabatlarni, morfologiya so'zning alohida olingan belgilariga ko'ra turkumlarga bo'lib o'rganishni o'z oldiga bosh maqsad qilib olgan. O'z navbatida sintaksisda so'zning sintaktik mohiyati, ya'ni bir so'zning boshqa so'zlar bilan a'loqaga kirishib, so'z birikmalari, gaplarni yuzaga keltirishi, shuningdek, alohida gap bo'lagi sifatida talqin etilishi ko'rib chiqiladi.

Tilshunoslikning boshqa sohalari ham u yoki bu holda so'z tahlili bilan shug'ullanadi. Masalan, stilistikada so'zning qanday nutq uslubiga taaluqli ekanligi, emotsional va badiiy bo'yoqdorligi tahlil etilsa, orfografiyada so'zlarni to'g'ri yozish, orfoepiyada so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish bosh obyekt hisoblanadi. Frazologiya bo'limida yaxlit holda ma'no ko'chishga asoslangan turg'un va erkin so'z birikmalari "iboralar" yoki "ideomalar" sifatida tadqiq etiladi. Demak, til sathlarini o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'lovchi unsuri - bu so'z ekan, biz nemis tilida so'z qo'llashni o'rganish orqali o'z magistrlikdissertatsiyamizda derivatsiya usulida yaratilgan so'z hosilalari, nemis tili lug'aviy birliklarining nutq jarayonida nafaqat leksik, balki fonetik, struktur-semantik, sintaktik derivatsiyalarga uchrashini tadqiq etishni **bosh maqsad** qilib oldik.

Biz ilmiy rahbarimiz dots.P.J.Nazarovning tadqiqot ishi – "Nemis tili leksikasining tarixiy derivatsion taraqqiyoti" mavzusidan kelib chiqqan holda o'z

oldimizga nemis adabiy tili va nemis so'zlashuv nutqidagi so'zlarning leksik, semantik va sintaktik derivatsiyasidagi farq va tafovutlarni o'rganib chiqish uchun quyidagi **vazifalarga** e'tibor qaratishimizni lozim deb topdik:

- zamonaviy nemis tilidagi lug'aviy birliklarning derivatsion tahlili;
- nemis tilidagi lug'aviy birliklarning leksik-semantik va sintaktik derivativligi;
- nemis adabiy tili va nemis kundalik so'zlashuv nutqidagi o'ziga xos belgilar;
- nemis tilida katta yoshlilar va yosh avlod leksikasi o'rtasidagi farqlar.
- nemis tilidagi leksik birliklarning leksik-sintaktik derivatsiyaga uchrashini o'zbek tili lug'aviy birliklari derivatsiyasi bilan solishtirgan holda o'rganib chiqish.

Tadqiqot ishining **obyekti** sifatida hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda o'zbek talabalarining nemis so'zlashuv nutqidan samarali tarzda amalda foydalanishlarini ko'zda tutdik.

Ishning **predmeti** esa nemis so'zlashuv nutqida noadabiy qatlam so'zlarining, ya'ni shevaga xos so'zlar, jargon so'zlar, varvarizmlar va vulgar so'zlar hamda noadabiy qatlam doirasidagi turg'un so'z birikmalarini derivativ va semantik qirralarini ochib berishga yo'naltirildi.

Tadqiqot ishimizning **ilmiy metodologiyasi** O'zbekistonda chet tillarni mukammal o'rganishga bo'lgan e'tibor, ya'ni prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan chet tillarni o'rganish yuzasidan chiqarilgan qonun va qarorlar bilan belgilanadi.

Magistrlik dissertatsiyasini yozishda quyidagi **ilmiy-tadqiqot uslublariga** murojaat qildik:

- 1) yirik olimlar tomonidan mavzu borasida bildirilgan g'oya va qarashlarni umumlashtirish;
- 2) nemis kundalik so'zlashuv nutqida uchraydigan noadabiy qatlam so'zlarini tahlil etish;
- 3) nemis so'zlashuv nutqida ko'p ishlatiladigan leksik birliklarni semantik jihatdan o'zbek so'zlashuv nutqidagi muqobillari bilan qiyoslash.



E'tirof etib o'tishimiz kerakki, uzoq muddat mobaynida O'zbekistonda sobiq Germaniya demokratik respublikasining davlat tili hisoblangan nemis tiligina chet tili sifatida o'rgatilib kelindi. Mustaqilligimiz hamda Germaniya davlatining birlashuvi sharofati bilangina nemis tilining ichki imkoniyatlari, shu jumladan noadabiy qatlam doirasidagi til birliklarini tadqiq etish imkoniyatiga ega bo'ldik. Boshqa xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik aloqalarni yaxshi yo'lga qo'yilishi natijasida nafaqat Germaniya xalqi foydalanadigan nemis tilini, balki yana german tillarini, shuningdek Avstriya, Shvetsariya, Lyuksemburg va Lichtenstein davlatlarida iste'molda bo'lgan nemis tilini o'zaro qiyosiy o'rganishga ham imkon tug'ildi. Shu boisdan nemis so'zlashuv nutqi jarayonida ko'p ishlatiladigan leksik birliklarning turli-tuman derivativlik va variativlik shakllari haqida o'zbek talabalariga ma'lumot berishni tadqiqot ishimiz natijalarining **ilmiy yangiligi** deb hisoblasak bo'ladi.

Magistrlik dissertatsiyamizning **nazariy ahamiyati** nemis tili misolida leksik-semantik va sintaktik derivatsiya hodisalarining uzviyligini ilmiy jihatdan asoslab berish bilan belgilanadi.

**Ishning amaliy ahamiyati** esa boshqa tillarda bo'lgani kabi, nemis tili lug'aviy birliklari doirasida namoyon bo'luvchi semalarning mohiyatini nemis tilini chet tili sifatida o'rganuvchi talabalarga yetkazib berish orqali ularda bu til bo'yicha tegishli ko'nikma va malakalarni kuchaytirish bilan bevosita bog'liqdir.

**Magistrlik dissertatsiyamiz struktural tomondan Kirish, 4 paragrafli 1-bob, 3 paragrafli 2- va 4 paragrafli 3-bob, Xulosa va Foydalanilgan adabiyotlar dan tarkib topdi.**

Ishning Kirish qismida biz ishning dolzarbligi, olimlar tomonidan o'rganilish darajasi, ishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar, ishni yozishda bevosita qo'llanilgan ilmiy tadqiqot uslubiyati va uslublari, magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati hamda ishning qisqacha struktural tavsifiga to'xtalib o'tdik.

Tadqiqot ishimizning 1-bobida biz tilda mavjud bo'lgan nutq uslublarini o'zaro

solishtirgan holda tadqiq etdik. Bu o'rinda biz eng avvalo har bir nutq uslubining o'ziga xos qirralari, nutq uslublariga xos bo'lgan sozlardan nutqda foydalanish, uslubiy betaraf so'zlarning nutqni tashkil etishdagi o'rni haqida to'xtalib o'tdik hamda nutq uslublarida so'zlarning derivatsion tuzilishiga e'tiborni qaratdik.

Magistrlik dissertatsiyasining ikkinchi bobi nemis tilidagi lug'aviy birliklarning leksik-semantik hamda sintaktik derivatsiyasini namoyon etishga bag'ishlandi. Bu bobning birinchi paragrafida nemis adabiy tilining taraqqiyot bosqichlariga to'xtalib o'tildi. Bobning ikkinchi paragrafida biz nemis dialektlarining taraqqiyot bosqichlari va bu dialektlarning hozirgi kundagi ahvoli to'g'risida ma'lumot berishga harakat qildik.

Dissertatsiyaning 2-bob uchinchi paragrafida esa nemis so'zlashuv nutqining tipik belgilari o'rganilib chiqildi.

Magistrlik dissertatsiyamizning uchunchi bobi "Zamonaviy nemis tili doirasida og'zaki so'zlashuv nutqi unsurlarining roli" deb nomlandi. Biz bu bobda nemis tiliga boshqa tillardan o'zlashgan lug'aviy birliklarning ta'siri, nemis adabiy tili va nemis so'zlashuv nutqida qisqartma so'zlarning qo'llanishi hamda nemis yoshlar tilidagi lug'aviy birliklarning umumiy tavsifi borasida o'z qarashlarimizni bayon etdik va ularni boshqa olimlarning goya va qarashlari bilan solishtirdik.

Dissertatsiyaning xulosa qismida ishda bildirilgan g'oya va qarashlar umumlashtirildi, ular asosida har bobning yakunida bob yuzasidan qisqacha xulosalar va ish yakunida umumiy xulosalar qilindi, hamda magistrlik dissertatsiyasiga tanlangan mavzu bo'yicha taklif va mulohazalar ishlab chiqildi.

Va nihoyat bitiruv malakaviy ishimizning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati tarkibidan ishni yozishda bevosita foydalanilgan ilmiy asarlar, risolalar, ilmiy maqolalar, internet ma'lumotlari olingan saytlar va lug'atlar ro'yxati o'rin oldi.

## **Birinchi bob**

### **So'z qo'llashda nutq uslublarining roli**

#### **1.1 Nutq uslublarining tavsifi**

Til va nutq tushunchalari bir-biriga o'zviy bogliq bo'lsa-da, ular orasida bir qator tafovutlar ham mavjud. Jumladan, til ijtimoiy hodisadir, nutq esa individual ko'rinishda bo'ladi. Yoki har qanday til og'zaki va yozma nutq holida namoyon bo'ladi. Har qanday tildan samarali foydalanishda suhbatdosh bilan o'sha tilda nutqiy muloqotga kirisha olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari til birliklaridan nutqda to'g'ri foydalanaish uchun nutq uslublarini to'g'ri tushunish va ularning talabiga ko'ra ish ko'rish ham kerak bo'ladi.

Demak, kishilar o'zaro fikr almashish jarayonida til vositalarini o'zlariga mos tarzda tanlaydilar va ishlatadilar, shuningdek voqelikka munosabatlarini turlicha ifodalaydilar, buning natijasida nutqning xilma-xil ko'rinishlari yuzaga kelar ekan. Turli xil nutq uslublariga xos bo'lgan fikrlar o'zaro fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi.

Bizga ma'lumki, nutq uslublari olimlar tomonidan quyidagi turlarga bo'lib tavsiflanadi:

- 1) badiiy uslub;
- 2) rasmiy-idoraviy uslub;
- 3) ilmiy uslub;
- 4) ommabob uslub;
- 5) so'zlashuv uslubi.

Bu nutq uslublarining har biri til birliklaridan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Agar rasmiy-idoraviy uslub ma'lum bir qolipga solingan jumladan tashkil topsa va aynan ish hujjatlarini ifoda etish uchun belgilangan nutq uslubi hisoblansa, o'z navbatida ilmiy uslub aniq ma'lumotlarga asoslanadigan faktik materiallardan tarkib

topadi. Ommabob nutq uslubi publisistik uslub deb ham nomlanadi. Mazkur nutq uslubi keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan so'z va birikmalardan foydalanish asosida matbuot tilini yuzaga keltiradi. So'zlashuv uslubi esa eng avvalo so'z qo'llashdagi erkinlik bilan xarakterlanadi. Aynan so'zlashuv nutqi uslubida so'zlarning o'z va ko'chma ma'nosi, ko'p ma'noliligi, so'z va birikmalarning qisqargan shakllari yaxlit tarzda namoyon bo'ladi. O'z navbatida badiiy uslubning ichki imkoniyatlari keng qamrovli bo'lib, bu uslub orqali qolgan barcha nutq uslublaridagi til birliklarini ifoda etish mumkin.

## **1.2. Ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslublarida so'z qo'llash**

Til birliklarining qay holatda ishlatilish yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, nutq uslublarining qaysi biridan nutq jarayonida foydalanayotganimizga bog'liqdir. Agar biz ilmiy yoki rasmiy-idoraviy nutq uslublarida o'z fikrimizni bayon qiladigan bo'lsak, bu o'rinda eng avvalo noadabiy qatlam so'zlaridan emas, balki barcha uchun tushunarli bo'lgan sodda, aniq so'zlardan, ifodalardan foydalanishimizga to'g'ri keladi. Shuningdek, ilmiy va rasmiy-idoraviy nutq uslublarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri bu har ikki uslubning ko'proq yozma nutqqa asoslanishi bilan belgilanadi.

O'z navbatida ilmiy uslubdagi yozma va og'zaki nutq jumjalarning ilmiy jihatdan asoslangan bo'lishini, nutqning ixcham, sodda ko'rinishini, til va nutq birliklarining asosan ma'lum bir qolipda bo'lishini (masalan, ilmiy uslubda "men" kishilik olmoshi o'rnida "biz" so'zi ishlatiladi, yoki ifoda etilayotgan gaplardagi kesim asosan majhullik nisbatida turishi), qisqartmalar, shu jumladan shartli qisqartmalar keng qo'llanishini talab etadi.

Ilmiy uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, bu uslubda ko'chma ma'noli so'zlar ishlatilmasa-da, unda ba'zi bir turg'un so'z birikmalaridan foydalansa bo'ladi, biroq bunday iboralar maxsus qolipga solinganligi bilan boshqa iboralardan ajralib turadi. Masalan nemis ilmiy uslubida "acht geben" – e'tibor bermoq, e'tibor

qaratmoq, “in acht nehmen” – eʼtiborga olmoq kabi iboralar qoʻllaniladi. Biroq bu kabi iboralar odatda soʻzlashuv yoki badiiy uslublarda deyarli ishlatilmasligini ham inobatga olishimiz lozim.

Ilmiy uslubni boshqa uslublardan ajratib turadigan asosiy farq bu albatta ilmiy uslubning terminologiyalar-atamalar bilan bogʻliqligidir. Tabiiy va ijtimoiy fanlarga oid barcha ilmiy asarlar, risolalar, maqolalar ana shu uslubda yoziladi. Bunda asosan har bir fanning oʻziga xos atamaları qoʻllaniladi, gaplar darak-xabar mazmunida boʻlib, ular murakkab qoʻshma gaplar shaklida qoʻllaniladi, turli shartli belgilar, ramzlar, kursivlar ishlatiladi, gap boʻlaklari oʻzlarining qatʼiy oʻrinlariga ega boʻladi.

Demak, ilmiy uslub asosan monologik xarakterda boʻlib, tabiat va ijtimoiy hayotda kechadigan jarayon, hodisalar unda aniq talqin etilar ekan hamda aniq ilmiy xulosalar chiqarilar ekan.

Rasmiy-idoraviy uslub davlat miqyosida hamda xalqaro tashqi iqtisodiyot va siyosiy aloqalardagi barcha ish yuritish va ish hujjatlari: masalan, davlat qonunlari, qarorlari va farmonlari, notalar hamda xalqaro kengash va simpoziumlarning hujjatlari, yoʻriqnomalar, shartnomalar, eʼlonlar va boshqa rasmiy ish qogʻozlari (ariza, buyruq, ishonch qogʻozi, tilxat, maʼlumotnoma, dalolatnoma, tavsifnoma, yigʻilish bayonnomalari)ni tayyorlashga moslashtirilgan nutq uslubi boʻlib, bu uslubning ham oʻziga xos tomonlari talaygina. Jumladan, rasmiy-idoraviy uslubda til birliklari belgilangan tartibda nutqda qoʻllaniladi.

Rasmiy-idoraviy uslubga mansub ish hujjatlaridan biri, masalan, ariza yozishda dastlab qogʻozning oʻng tomonida ariza kimga kim tomonidan yozilayotgani koʻrsatiladi, shundah keyin sarlavha tariqasida “ariza” soʻzi yoziladi va yangi satrdan ariza matni beriladi. Ariza matni iloji boricha qisqa va tushunarli boʻlishi talab etiladi. Ariza matni tugagach, qogʻozning chap tomoniga sana va oʻng tomoniga imzo qoʻyiladi.

Rasmiy-idoraviy uslubda yoziladigan boshqa bir ish hujjati – tavsifnomada esa

dastlab qog'ozning o'rtasida tavsifnomaning kimga berilayotgani (tavsifnoma berilayotgan shaxsning ismi-sharifi, tug'ilgan yili, millati kabi tipik belgilar) borasida ma'lumot beriladi. Shundan so'ng alohida satrdan tavsifnoma matni yoziladi. Tavsifnoma matni tugagandan so'ng yangi satrdan tavsifnomaning kim tomonidan berilayotganligi tegishli imzosi bilan ko'rsatiladi. Shuningdek, tavsifnoma oxirida tegishli sana qayd etiladi.

Rasmiy-idoraviy uslubda yoziladigan ish hujjatlarida asosan darak va buyruq gaplardan foydalaniladi. Masalan, yig'ilish bayonnomalaridagi tavsiflar darak gap shaklida ifoda etilsa, ularda chiqariladigan qaror va ko'rsatmalar buyruq gaplar bilan qayd etiladi. Yig'ilish bayonnomalarining yozilish tartibi ham o'ziga xosdir. Bunday ish hujjatlarida dastlab qog'ozning tepa qismi chap tomonida yig'ilish o'tkaziladigan joy va yig'ilish o'tkazilish sanasi yoziladi. Undan keyin yig'ilish ishtirokchilari qayd etiladi va yangi satrdan kun tartibi beriladi. Demak, yig'ilish bayonnomalarining umumiy shakli quyidagicha ko'rinish oladi:

Mansil nomi

Sana

Yig'ilish raisi:.....

Yig'ilish kotibi:.....

Qatnashdilar:.....

Kun tartibida

1. ....;
2. ....;
3. ....;
4. ....

Yig'ilish bayoni matni yangi satrdan beriladi. Bu o'rinda so'zga chiquvchilar nutqi alohida e'titof etiladi. Kun tartibidagi har bir masala matni bayon qilingach,

ulardan keyin ushbu masalalar bo'yicha qaror qismi beriladi. Yig'ilish qarorlari quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. O'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borish talab etilsin.

2. Har bir o'quv xonasini zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlash institut xo'jalik bo'limi zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish bayonnomasining yakunida yig'ilish raisi va yig'ilish kotibi ismi-sharifi yozilib, ular imzolanadi.

Rasmiy-idoraviy uslubda til va nutq birliklaridan foydalanishning yana bir tomoni, bu uslubda ham ko'chma ma'noli so'zlardan, iboralar va tasviriy ifodalardan deyarli foydalanib bo'lmasligidir.

### **1.3. Badiiy va ommabob nutq uslublarida lug'aviy birliklardan foydalanish**

So'z vositalaridan erkin foydalana olish, o'quvchi yoki tinglovchi ruhiyatiga chuqur ta'sir ko'rsatish maqsadida, tilning tasviriy, obrazli vositalaridan, emotsional va ekspressiv so'zlardan keng foydalanish badiiy uslubning asosiy xususiyatidir.

Badiiy uslub o'zining badiiy buyoqdorligi bilan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi. Masalan o'zbek tilida badiiy uslubda "chiroyli qiz" so'zining buyoqdor ma'nodoshlari sifatida quyidagi so'zlardan foydalanish mumkin:

Sarviqomat, sohibjamol, hurilaqo, oyjamol, hipcha bel, murchamiyon, barno, ko'rkam, ko'hlik, suluv, dilbar....

Huddi shuningdek nemis badiiy adabiyotida „chiroyli“ so'zi turli xil buyoqdor ma'no ottenkalariga ega sinonimlarni tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Masalan:

***Schön, hübsch, reizend, prächtig, prachtvoll, nett ....***

Shuningdek, mazkur uslubdagi nutqda badiiy-tasviriy vositalar: masalan ko'chimning turlari (metafora, istiora, metonimiya, sinekdocha, kinoya, mubolag'a, ramz va boshqalar), iboralar, tasviriy ifodalar yetakchilik qiladi. Fikrimizning isboti

sifatida badiiy asardan olingan quyidagi parchani ko'rib chiqamiz:

*...botayotgan quyosh shu'lalari qo'sh o'rkach o'rtasida o'tirib olgan ona qiyofasini baralla ko'rsatardi. U jiddiy tusda yuzlarining qoni qochgan holda hushyor tortib, xavotirlanib o'tirardi. Sochlar oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g'am g'ussali ko'zlariga esa Sario'zak xuftoni – g'am-tashvish cho'kkan edi.* (Chingiz Aytmatov. „Oq kema“ qissasidan)

Bu matnda fikr „quyosh shu'lalari“, „ona qiyofasi“, „manglay“, „g'am-g'ussali ko'zlar“ kabi buyoqdor so'zlar, shuningdek „yuzlarining qoni qochgan“, „hushyor tortmoq“, „tashvish cho'kmoq“ kabi turg'un so'z birikmalari kitobxonning ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatish uchun qo'llanilganligining guvohi b'lamiz.

Demak badiiy uslub asosan yozma nutqqa xos bo'lib, bu uslubda yoziladigan asarlar kitobxonga axborot berishdan tashqari estetik vazifani ham bajarar ekan.

O'z navbatida ommabob uslub boshqa uslublarga nisbatan keyinroq paydo bo'lganligini, bu uslub matbuot bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlab o'tishimiz joiz. Ommabob uslub yozma va og'zaki shakllarda namoyon bo'ladi. Ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televedenie) uchun yoziladigan, ijtimoiy hayotning turli masalalariga oid ocherk, fel'eton, pamflet, reportaj, murojaatnomalar ana shu uslubda yaratiladi.

Ommabob uslubning og'zaki shakli esa bevosita notiqlik san'atida namoyon bo'ladi. Turli uchrashuvlar, kechalarda, shuningdek radio, televideniya kundalik voqealar, xalqaro hayotga oid sharhlar bilan chiquvchi muxbir va notiqalar aynan ommabob uslubning og'zaki nutq shaklida muloqotga kirishadilar. Ularning voqelikka bo'lgan munosabatlari fakt tanlash, o'z qarashlarini mantiqiy izchil, qisqa, aniq, ravshan tahlil qilishda ko'rinadi.

Shu bilan birga ommabob uslubda so'zlashuv uslubiga xos unsurlar ko'zatilmaydi, bu uslubda ko'pincha ijtimoiy-siyosiy atamalardan foydalaniladi.

#### **1.4. Og'zaki so'zlashuv nutqiga xos unsurlar**



Og'zaki so'zlashuv nutqi o'zining so'z qo'llashdagi erkinligi bilan boshqa nutq uslublaridan ajralib turadi. Shuningdek, so'zlashuv uslubida gap bo'laklarining o'rnini istagancha almashtirish, unutilgan so'z yoki birikmalarni gap oxirida keltirish ham mumkin.

So'zlashuv uslubida undalma, sodda ko'chirma gaplar, to'liqsiz va so'z-gaplar ham ko'p qo'llaniladi. Bu uslubning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri nutq so'zlanilayotgan paytda har xil imo-ishoralar, tilning yordamchi unsurlari: taqlid so'zlar, undovlar, modal so'zlar, yuklamalardan, fonetik yozuv qoidalaridan samarali foydalanish mumkin. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi parchaga murojaat etamiz:

*... hazillashaysizmi, ovsinjon, o'-o'-o'lmang-e, odamning yuragini yorvordingiz-ku, Biram holiqasiz-ey, biram hovliqasiz-ey...O'ziyam bozordan qaytib kegunimcha ona sutim og'zimga keldiyov.*

So'zlashuv uslubidagi bu matnda avvalo so'zlovchining intonatsiyasi alohida ajralib turadi. Ya'ni , o'-o'-o'lmang-e, odamning yuragini yorvordingiz-ku, biram holiqasiz-ey, biram hovliqasiz-ey kabi so'zlarda ma'noni kuchaytiruvchi vositalar yordamida fikr o'ziga xos cho'ziq ohang bilan bayon qilinayapti. Shuningdek, matnda takrorlar ham mavjud bo'lib, ular ham kishining holatini belgilashda muhim o'rin tutadi.

Aynan og'zaki so'zlashuv nutqida so'zlovchi va tinglovchi shaxsning tez va oson muloqotga kirishishi asosiy o'rinda turadi. Shu sababli bu uslubda biz ko'plab qisqartmalarni, ko'chim turlarini, noadabiy qatlam so'zlaridan foydalanishimizga to'g'ri keladi.

Biz fikrimizning isboti sifatida nemis tilidagi ba'zi qisqartmalardan og'zaki nutqda foydalanish borasida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlarga to'xtalib, ularga o'z munosabatimizni bildirmoqchimiz.

So'z va so'z birikmalarini qisqartirish ko'pchilik Hind-Ovropa tillariga xos bo'lgan qadimiy jarayon hisoblansa-da, bu holat zamonaviy nemis tilini ham chetlab

o'tgan emas. Hozirgi kunda so'z va so'z birikmalarini qisqartirishdan asosan og'zaki kundalik so'zlashuv nutqida nutq samaradorligini yanada kuchaytirish maqsadida foydalanilmoqda. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, bunday qisqartirishlar turli xil usullarda yuzaga kelishi mumkin. Jumladan, so'zlar va so'z birikmalarining bosh harflarini keltirish bilan, ularning tarkibida mavjud bo'lgan harflardan yangi so'zlar hosil qilish orqali yoki alohida olingan bo'g'inlardan, so'z birikmasi yoki so'z tarkibidagi birinchi so'zning birinchi bo'g'ini va qolgan so'zlarni to'liq keltirish bilan hosil qilinishi mumkin. Nemis tili leksikologiyasi bilan chuqur shug'ullangan olimlar A.Iskos va A.Lenkovalar o'zlarining "Deutsche Lexikologie" nomli asarida bunday qisqartmalar qatoriga quyidagilarni misol qilib keltirishgan:

U-Bahn = Untergrundbahn;

Flak = Fliegerabwehrkanone;

Pak = Panzerabwehrkanone;

Krad = Krafttrad;

S-Bahn = Stadtbahn;

TAN = die technisch begründeten Arbeitsnormen (8, 83.)

O'z navbatida bunday tipdagi qisqartmalarining ko'plik shakli odatda so'zga "-s" qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan. Masalan:

das Krad ( das Krafttrad) - die Krads ( die Kraftträder);

der Ami (der Amerikaner) - die Amis (die Amerikaner);

der Lkw (der Lastkraftwagen) - die Lkws (die Lastkraftwagen)... (8, 84-b)

Shunga ham e'tibor qaratish lozimki, hosil qilingan qisqartma so'zlar asosida so'z oilalari ham yaratish mumkin. Misol uchun, yuqorida keltirilgan Flak (Fliegerabwehrkanone) qisqartma so'zi asosida quyidagi so'z oilalarini yaratish mumkin:

Flakabteilung, Flakartellerie, Flakschütze, Flakfeuer, Flaksalve va boshqalar.

A.Iskos va A.Lenkovalar 20 asrda nemis kundalik so'zlashuv nutqida ko'p qo'llaniladigan qisqartmalar qatoriga quyidagilarni misol qilib keltirishgan:

die Uni - die Universität, das Kino - der Kinematograph, die Lok - die Lokomotive, das Labor - das Laboratorium, der Zoo -Zoologischer Garten (Deutsche Lexikologie, 86-b), das Photo (die Photographie), die U-Bahn (die Untergrundbahn), die S-Bahn (die Stadtbahn), der Ami (der Amerikaner), der Ober (der Oberkellner), Emm ( die Mark) va boshqalar (8, 89.).

Sie trank ihren Tee aus, und dann kam **der Ober** wieder und legte eine Abendteitungauf den Tisch. (R.Braune)

Nachdem zu diesen unsauberenMädchen zwanzig- bis dreißigtausend **Emm** schuldest ( L.Feuchtwanger)

Albatta, 21-asrda nemis so'zlashuv tilida qo'llaniladigan qisqartma so'zlar miqdori yanada kengaydi. Quyidagi misollar buning yaqqol isbotidir:

AB = Anrufbeantworter, Abo = Abonnement, AG = Aktiengesellschaft, AG = Arbeitsgemeinschaft, Dr. =Doktor (Titel), EU = Europäische Union, GEZ = Gebühreneinzugszentrale der (öffentlich-rechtlichen) Rundfunkanstalten, Info(s) = Information(en), k.o. = kaputt, erschöpft, Lkw = Lastkraftwagen, NC = Numerus clausus, O-saft = Orangensaft, o.k. = in Ordnung, gut, PC = Personaler Komputer, Pkw = das Auto, das Privatauto, S-bahn = Schnellbahn, SMS = Kurznachricht am Handy, TÜV =Technischer Überwachungsverein, U-Bahn = Untergrundbahn, die Uni = die Universität, usw. und so weiter, WG = Wohngemeinschaft, z.B = zum Beispiel (9, 27.).

## **Birinchi bob bo'yicha xulosalar**

Dissertatsiya ishimizning binchi bobida biz til birliklarini nutqiy vaziyatlarda ishlatilishida muhim o'rin egallovchi nutq uslublari borasida to'xtalib o'tdik. Bob 4 paragrafdan tashkil topgan bo'lib, birinchi paragrafda nutq uslublarning vazifasi, ular orasida so'z qo'llashda mavjud bo'lgan ba'zi bir o'xshashliklar va tafovutlar borasida to'xtalib o'tdik. Bu o'rinda, jumladan, til va nutq tushunchalariga e'tiborimizni qaratgan holda nutqning og'zaki va yozma nutq ko'rinishdagi shakllarini o'zaro solishtirdik. Bundan tashqari til birliklaridan nutqda to'g'ri foydalanaish uchun nutq uslublari to'g'ri tushunish va ularning talabiga ko'ra ish ko'rish kerakligini inobatga olgan holda dastlab har bir nutq uslubiga qisqacha to'xtalib o'tgan bo'lsak, bobning qolgan paragraflarida alohida olingan nutq uslubining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqdik.

Bobda bayon qilingan g'oya va qarashlar asosida biz kishilar o'zaro fikr almashish jarayonida til vositalarini o'zlariga mos tarzda tanlashlari va o'zlariga mos tarzda ishlatishlari, shuningdek voqelikka munosabatlarini turlicha ifodalashlari uchun nutqning xilma-xil uslubdagi ko'rinishlaridan foydalanishlarini va turli xil nutq uslublari mansub bo'lgan fikrlar o'zaro fonetik, leksik va grammatik jihatdan o'ziga xos holatda namoyon bo'lishini tushunib yetdik.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, rasmiy-idoraviy uslub ma'lum bir qolipga solingan jummalardan tashkil topadi va aynan ish hujjatlarini ifoda etish uchun belgilangan nutq uslubi hisoblanadi, ilmiy uslub aniq ma'lumotlarga asoslanadigan faktik materiallardan tarkib topadi, ommabob nutq uslubi esa keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan so'z va birikmalardan foydalanish asosida matbuot tilini yuzaga keltiradi. Agar so'zlashuv uslubi kishilar orasida tez va tushunarli muloqotni yuzaga keltirish vositasi sanalsa, o'z navbatida badiiy uslub barcha nutq uslublari xos xususiyatlarni o'zida ifoda eta oladigan, shu bilan birga badiiy buyoqdorligi bilan boshqa nutq uslublariidan ajralib turadigan nutq uslubi ekan.

Shuningdek, ishimizning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda biz ishimizning birinchi bobida dadabiy til va kundalik so'zlashuv nutqidagi so'z qo'llashdagi farqlarni ham o'rganib chiqdik.

## **Ikkinchi bob**

### **Nemis adabiy tili va kundalik so'zlashuv nutqiga xos lug'aviy birliklarining derivatsion tarkibi**

#### **2.1. Nemis adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari**

Har qanday tilning rivojlanishida tabiiyki qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar, talonchilik urushlari, gegemon davlatlarning siyosati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday hodisalar tufayli ma'lum bir til doirasida o'zlashgan so'zlar o'z shaklini o'zgartirmagan holda yoki yangi til qonun-qoidalariga, adabiy til me'yorlariga moslashgan holda paydo bo'ladi. Shunday o'zlashgan so'zlar zamonaviy nemis tili va kundalik nemis so'zlashuv nutqida ham ko'plab uchrashini e'tirof etib o'tish joiz. Ma'lumki, nemis tili o'z tarixiy taraqqiyoti davomida asosan lotin tili, yunon tili, qo'shni mamlakat tillaridan esa frantsuz va ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar hisobiga boyib borgan. Agar to 18-asrga qadar nemis tili lug'at boyligi lotin tilidan kirib kelgan so'zlar (masalan: Pflanze , ahd. pflanza, lat. planta; Käse, ahd. chasi, lat caseus; Korb, ahd. chorb, lat. corbis; Sichel, ahd. sihhila, lat. secula; Kohl, ahd choli, kol; lat. caulis; Wein, ahd. win, vinum; Kampf, ahd. kampf, lat. campus; Wall, ahd. wal, lat. vallum; Straße, ahd. straza, lat. srtata; Meile, ahd. mil(l)a,lat.milia; Mauer, ahd.mura,lat.murus; Fenster, ahd. venestar, lat. fenestra; Pforte, ahd. pforta, lat. porta; Kammer, ahd. kamera, lat. camera; Ziegel, ahd. ziagel, lat. tegula;Münze, ahd. munizza, lat. moneta; Markt, ahd markat, lat. mercatus; Pfund, ahd. pfunt, lat. pondus; kaufen, ahd. kaufon, lat. caupones; Tisch, ahd tisc, lat. diskus; Kessel, ahd. kezzil, lat. catilus; Pfanne, ahd. pfanna, lat. patina; Kloster, ahd. klostar, lat. claustrum; Münster, ahd. munistri, lat. monasterium; Mönch, ahd. munih(h), lat. monacus; Nonne, ahd. nunna, lat. nonna; Messe, ahd. missa, lat. messa; Kreuz, ahd. kruzi, lat. crux; opfern, ahd. opfaron, lat. operari; Schule, ahd. scuola, lat. scola; schreiben, ahd. scriban, lat. scriberi, Tinte, ahd. tincta, lat. tincta; Tafel, ahd. tavola,

lat. tabula; Kreide, ahd. krida, lat. creta; dichten, ahd. tihton, lat. dictare; Meister, ahd. meistar, lat. magister; Titel, ahd. titul, lat. titulus; Fieber, ahd. fiebar, lat. febrisva boshqalar (8, 96-97.).

## 2.2. Nemis dialektlarining tarixiy taraqqiyoti

Nemis tili shunday tillar qatoriga kiradiki, bu til o'zining turli xil ko'rinishlari bilan alohida ajralib turadi. Jumladan nemis adabiy tili (die Nationalsprache) yozma nemis tili (die Schriftsprache) hamda og'zaki nemis tili (Mundsprache) ko'rinishlarida namoyon bo'lish bilan birga, nemis tili boshqa atamalar bilan ham nomlanadi. Ya'ni, Gesamtdeutsch -umumiy nemis tili; Hochdeutsch, Hochsprache - janubiy nemis tili, hozirda nemis adabiy tili; Plattdeutsch - shimoliy nemis tili; Umgangssprache - noadabiy qatlamdagi nemis muloqot tili; Jugendsprache - nemis yoshlari tili va boshqalar. Nemis tili leksikologiyasi bilan uzoq vaqt shug'ullangan rus olimlari M.Stepanova va I.Chernischovalar nemis tilini quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatishgan:

Schriftsprache = Einheitssprache = Gemeinsprache = Hochsprache = Kultursprache = Standartsprache;

Umgangssprache / Halbmundart = Landschaftssprache = Stadtsprache = Verkehrssprache = Alltagssprache = Haussprache;

Mundart = Ortsprache = Volkssprache (Qarang : 12, 150)

Shuni qayd etib o'tishimiz lozimki, nemis adabiy tilining lug'at boyligi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida turli hududiy dialektlar, masalan bavar, shvab, alleman, frank, sakson, frits dialektlari kabi xalq shevalarining uzviy aloqalari asosida yuzaga kelgan. Shu sababli ham Germaniya davlatining deyarli har bir okrugi o'zining mahalliy dialektini saqlab qolish bilan birga, ular o'ziga xos og'zaki so'zlashuv nutqiga egadirlar. Masalan, rus olimi V.Jirmunskiy "kartoshka" so'zining nemis dialektlarida 27 xil ma'nodoshi mavjudligini qayd etgan: **Kartoffel, Toffel, Tufke, Erdtoffel,**

**Potato, Schocke, Erdschocke, Pumser, Erdapfel, Bodenapfel, Grundbirne, Erdbirne, Bodenbirne, Erdrübe, Erdnuß, Nudel, Erdnudel** va boshqalar. (17, 108)

Ayrim lug'aviy birliklar hozirgi kunda ham Germaniyaning shimoliy va janubiy hududlarida ikki xil nom bilan aytiladi. Masalan:

janubda	shimolda
Lefze	Lippe
Gestade	Ufer
Nachen	Kahn
Mädel	Mädchen
Geiß	Ziege
Metzger	Fleischer
Bube...	Knabe ... (8, 253)

### 2.3. Nemis tili so'zlashuv nutqining tipik belgilari

Har qanday til og'zaki so'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu albatta boshqa assimiliatsiya turlariga nisbatan o'zlashma so'zlarda orfografik assimiliatsiyaning roli muhimligidir. Bunday so'zlar qatoriga frantsuz tilidan kirib kelgan "Chauffeur, Chef, Vestibule, Friseur" so'zlari o'rniga nemis tilida paydo bo'lgan "Schofför, Schef, Vestibül, Frisör" so'zlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yoki hozirgi nemis so'zlashuv nutqida keng iste'molda bo'lgan "hantieren" fe'li ham inglizcha "hunting" (ovlash) so'zining orfografik assimiliatsiyasi va boshqa so'z turkumiga o'tishidan hosil bo'lgan. Hozirgi kunda bu so'z nemis so'zlashuv nutqida biror bir qurol-aslaha yoki dastgoh bilan muomala qilish ma'nosida keng qo'llaniladi. Misol uchun:

**An Tankstellen sollte man nicht mit offenem Feuer hantieren** = Yoqilg'i quyish shahobchalarida ochiq olovdan foydalanib bo'lmaydi.

**Man hörte sie in der Küche hantieren** = Uni oshxona yumushlarini



qilayotganini eshita bo'lardi.

Boshqa tillarda bo'lgani kabi nemis tili so'zlashuv nutqida ham so'z yoki so'z birikmasining ko'chma ma'noda qo'llanilishi yetakchi o'rin tutadi. Ko'chma ma'noli so'zlarning semantik jihatdan o'zgarishi va uning nutq iste'moldagi vazifasi so'zlashuv tilining muhim belgilaridan biri ekanligini quyidagi misollardan ham ko'rsa bo'ladi:

Nemis ijtimoiy qatlamlarining, ayniqsa xalq shevalarining aksariyatida keng tarqalgan "Gulden" (nemis pul birligi) kelib chiqishiga ko'ra "das Goldene" (oltin qo'shilgan metaldan qilingan pul birligi) ma'nosidan kelib chiqqan bo'lib, so'z ma'nosining kengayishi tufayli hozirgi kunda turli xil metallardan yoki qog'ozdan qilingan pul birliklariga nisbatan ishlatiladi. Masalan: Silbergulden (kumush tanga), Papiergulden = Geldbanknote (qog'oz pul) va boshqalar.

Olimlar so'zning ko'chma ma'nolarda qo'llanishini turlicha talqin etishadi. Jumladan, A. Iskos va A.Lenkovalar so'zning ko'chma ma'noda kelishini quyidagi turlarga bo'lishgan:

- 1) metaforik, metonimik hodisalar kabi ismlarning ko'chma ma'noda kelishi;
- 2) so'z ma'nosining kengayishi va torayishi;
- 3) so'z ma'nosi ahamiyatining ko'tarilishi va pasayishi;
- 4) so'z ma'nosining haddan tashqari kuchaytirilishi yoki haddan tashqari pasaytirilishi (Hyperbel und Litotes);
- 5) ma'nodagi oyfimistik o'zgarishlar (Euphemismus) (8, 127.)

O'zbek olimlari so'z ma'nosining o'zgarishining yuqoridagi turlaridan tashqari so'z ma'nosi ko'chishida majoz, jonlantirish, vazifadoshlik ham muhim o'rin tutishini alohida ta'kidlashadi. (qarang: S.Hamroyev. O'zbek tilidan ma'ruza matnlari)

So'zlashuv nutqida biz bu ma'no ko'chishlaridan asosan metafora, metonimiya, sinekdoxa, majoz, jonlantirishlarning yetakchi ekanligini ta'kidlab o'tamiz. Badiiy asarlardan olingan quyidagi kundalik so'zlashuv nutqi unsurlari fikrimizning yaqqol isbotidir:

Martha sagte in die **Muschel**: "Ja, ich bins" (A.Scharrer) ("Muschel" - telefon trubkasidagi teschikchalar, "telefon" so'zi o'rnida)

Er **trank** sein **frisches Glas leer** (A.Seghers) (frisches Glas = ein neues, eben gebrachtes Glas (Bier); leer trinken - bis zum Ende trinken)

Was hat sie gesagt? Unmöglich, sie kann es nicht so gemeint haben! Er ist ein **Esel** ("Esel" so'zi "yaramas, ahmoq kimsa" ma'nosida).

"Wer kann da lustig sein, wenn's **einem an den Kragen geht**" antwortete die Katze (Br. Grimm) (j-m anden Kragen gehen = ums leben gehen)

Alle waren **todweiß** und bewegten sich **todlangsam** (L.Frank) (das Wort "tod" als ein verstärkender Morphem)

"Noch nicht müde? Ich gehe hier und horche auf den Wind..., **verflixtes Wetter...**" (Th.Mann). Bu o'rinda "verflixt" so'zi "verflucht = verwünscht" so'zi vazifasida kelgan. (8, 127-166)

Nemis tilida shunday oyfimistik ko'chma ma'noli so'zlar ham borki, ular aynan kichik noadabiy qatlamlarda, jargonlarda ishlatiladi. Masalan "stehlen" (o'g'irlamoq) so'zi o'rnida "klauen", "stibitzen", "mausen"; "Handfesseln" so'zi o'rnida "Manschetten", "Brasselette"; "sterben" o'rnida "ins Gras beißen".

Og'zaki so'zlashuv nutqida turli xil taqlid so'zlardan ham samarali foydalaniladi. Bunday taqlid so'zlar adabiy til normalariga mos kelishiga hamda lug'atlarda mavjud bo'lishiga qaramasdan, ular yozma nutqda diyarli ishlatilmaydi. Nemis so'zlashuv nutqi doirasida ko'p uchraydigan bu kabi taqlid so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

dudeln = *umg* Synonym zum Wort "blasen"

jodeln = in schnellem Wechsel von sehr hohen und tiefen Tönen einzelne Silben singen (wie es *besonders* in den Alpen typisch ist) (9,455)

klirren = etwas gibt ein helles, unharmonisches Geräusch von sich (z.B. Gläser); Bei dem leichten Erdbeben klirrten die Fenster (9, 479)

piepsen = 1. etwas mit schwacher, hoher Stimme sagen oder singen (ein Lied

piepsen): "Guck mal Mami!" piepste das Kind. 2. ein Tier oder ein Apparat oder Ähnliches produziert einen leisen, hohen Ton (ein Vogel, eine Mus; eine Armbanduhr; ein elektronisches Gerät) (9, 632)

wiehern = ein Pferd wiehert; wiehern *umg* laut und intensiv lachen (9, 973)

trillern = vom Wort "Triller". Triller= ein Klang , der durch die schnelle Wiederholung von zwei (hohen) Tönen entsteht *besonders* beim Gesang eines Vogels (9, 845)

kichern = leise und mit hohen Tönen lachen. Als der Lehrer stolperte, kicherten die Kinder (9, 471)

jauchzen = *förmlich*; mit lauter (hoher) Stimme jubbeln (vor Freude jauchzen) (9, 453)

ächzen = 1. Vor Schmerz oder Anstrengung stöhnen und tief atmen (sich ächsend bücken): unter Ächsen und Stöhnen einen schweren Koffer tragen. 2. etwas ächst = etwas gibt ein ächsendes Geräusch von sich = etwas knarrt (das Gebälk, ein Stuhl, eine Treppe) (9, 40)

klatschen = 1. etwas klatscht (irgendwohin) = etwas trifft auf etwas mit dem Geräusch, das entsteht, wenn Wasser plötzlich auf die Erde geschüttet wird: Die Wellen klatschen gegen den Bug des Schiffes. 2. (in die Hände) klatschen = die Hände so gegeneinanderschlagen, das man es weit hört: Der Trainer klatschte (in die Hände), um seine Mannschaft anzufeuern. 3. (Beifall) klatschen (Redewendung) aus Anerkennung klatschen = applaudieren (9, 475)

knacken = 1. etwas knacken = eine Frucht öffnen, die mit einer harten Schale umgeben ist (Nüsse knacken). 2. etwas knacken *umg* etwas mit Gewalt öffnen = aufbrechen (ein Auto, einen Safe, ein Schloß knacken) 3. etwas knackt = etwas macht ein Geräusch wie trockenes Holz, das zerbricht (9, 480)

klimpern = 1. (Münzen, Schlüssel) klimpern = Münzen, Schlüssel stoßen aneinander und erzeugen helle Töne. 2. mit etwas klimpern = Gegenstände aus Metall

so gegeneinanderschlagen, das helle Töne erklingen (mit Geldstücken, mit Schlüsseln klimpern). 3. auf etwas (Dativ) *umg; meist* auf der Gitarre, dem Klavier einige Töne spielen (9, 479)

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, taqlid so'zlardan nafaqat yuqoridagi kabi fe'llar, balki yana ot, sifat, undov so'z kabi boshqa so'z turkumlariga xos bo'lgan lug'aviy birliklarni yuzaga keltirish mumkin. Masalan: "knacken" fe'li aslida "knack" taqlid so'zining otga aylanishidan hosil qilingan bo'lib, bu so'z sifatga aylanganda, ya'ni "knackig" ko'rinishida so'zlashuv nutqida ko'pincha sabzi, salat, olma kabi narsalarning kirtillab yeyiladigan holatda barraligini anglatadi (9, 480). Yoki "der Klatsch" oti faqat birlikda qo'llanilib, odamlarning boshqa odamlar to'g'risida bo'lmag'ur gaplar ma'nosini beradi (9, 474).

O'z navbatida taqlid so'zlardan nutqning so'zlashuv uslubida jargon va argotlar sifatida foydalanish ham keng tus olgan. Jumladan, soldatlar jargonida "Klim-Bim" taqlid so'zi harbiylarning musiqa bilan shug'ullanuvchi bo'limining nomini bildiradi. Yoki og'zaki so'zlashuv nutqida itga nisbatan **Beller** ("bellen" fe'lidan), mushukka nisbatan **Schnurrer** ("schnurren" fe'lidan), baqaga nisbatan **Quacker** ("quacken" fe'lidan) so'zlari ishlatiladi. Xuddi shunday argotda mayda qiymatga ega bo'lgan tangalarga nisbatan **Klimperlinge** so'zi keng qo'llaniladi. Rus olimlari A.Iskos va A.Lenkovalar shuningdek bunday taqlidiy so'zlardan badiiy adabiyotda ham keng foydalanish mumkinligini alohida ta'kidlab o'tishadi va bunga misol tariqasida mashhur nemis yozuvchilari: F.Schiller, Gyote va Heyne ijodidan olingan quyidagi she'rlarni keltirishadi:

Und es wallet und siedet und **brauset** und **zischt** (Fr.Schiller)

Da **pfeift** es und geigt es und klingelt und **klirrt**,

Und ringelt's und schleift es und **rauschet** und **wirrt**,

Da **pispert's** und **knister's** und **flistert's** und **schwirrt**. (J.W.Goethe)

Es **murmeln** die Wogen ihr ewiges **Gemurmel**,

Es wehet der Wind, esfliehen die Wolken (H.Heine) (8, 91-92.)

Demak, og'zaki so'zlashuv nutqi xalq tili sifatida imkoniyatlari ko'p ekan.

## **Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar**

Dissertatsiyamizning ikkinchi bobida biz aynan nemis adabiy tili va nemis so'zlashuv tili o'rtasidagi so'z qo'llash bilan bevosita bog'liq bo'lgan masalalarga e'tiborimizni qaratdik. Mazkur bob uch paragrafdan tashkil topgan bo'lib, bu paragraflar quyidagicha nomlanadi:

2.1. Nemis adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari.

2.2. Nemis dialektlarining tarixiy taraqqiyoti.

2.3. Nemis tili so'zlashuv nutqining tipik belgilari

Bobning birinchi paragrafida biz nemis tili lug'at boyligining tarixiy taraqqiyoti natijasida so'z doirasida yuz bergan o'zgarishlar borasida nemis kundalik so'zlashuv nutqida ko'p ishlatiladigan lug'aviy birliklarning derivatsion taraqqiyot natijasida nemis adabiy tili leksikadan farqlanib borishi to'g'risida ma'lumot berib o'tdik. Ishning 2-bob 2-paragrafi esa nemis dialektlarining nemis adabiy tili va nemis so'zlashuv nutqida tutgan o'rni, nemis dialektlarining asosiylari va ularning o'ziga xos qirralari, shuningdek janubiy nemis dialektlari va shimoliy nemis dialektlarida so'z qo'llashdagi tafovutlarga bag'ishlandi va bu tafovutlar dialektlarga asoslangan kundalik so'zlashuv nutqidan olingan misollar yordamida ko'rsatib berildi. Uchinchi paragrafda esa biz nemis kundalik so'zlashuv nutqining o'ziga xos belgilari, jumladan nemis so'zlashuv nutqida ishlatiladigan leksik birliklar tavsifi, ya'ni zamonaviy so'zlashuv nutqida nemischa va inglizcha so'zlarning bir-biriga chatishib ketishi, so'zlashuv nutqida qo'llaniladigan aksariyat so'zlarning qisqargan shaklda bo'lishi, nemis so'zlashuv nutqida taqlidiy so'zlardan so'z yasashning samaradorligi, shuningdek nemis so'zlashuv nutqida ishlatiladigan so'zlarning fonetik, leksik va morfologik belgilar to'g'risidagi qarashlarimizni bayon qildik.

**Uchinchi bob**  
**Zamonaviy nemis tili doirasida og'zaki so'zlashuv nutqi**  
**unsurlarining roli**

**3.2. Nemis so'zlashuv nutqida so'zlardan foydalanish**

Nemis so'zlashuv nutqi o'zining leksik jihatdan keng qamrovliligi bilan alohida ajralib turadi. Shu boisdan ham hozirda nemis tilida gapiradigan mamlakatlardagina (Germaniya federativ respublikasi, Avstriya, Shvetsariya davlatlari, Lyuksemburg gertsogligi hamda Lichtensteyn knyazligi) emas, balki Germaniya tarkibiga kiruvchi 16 ta okrugda ham turli xil dialektlarga asoslangan so'zlashuv nutqi amal qiladi. Har bir hudud, har bir mintaqada kundalik so'zlashuv nutqida so'z qo'llash bir-biridan tubdan farq qiladi.

Demak, har bir xalqning tilida, ayniqsa shu xalqqa mansub kishilarning kundalik so'zlashuv nutqida milliy kaloritni belgilash bilan birga hududiy jihatdan farqlanuvchi lug'aviy birliklar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday milliy kaloritni ko'rsatuvchi hududiy birliklarga, jumladan har bir mamlakatning turlicha salomlashuv va xayrlashuv so'zlari yaqqol misol bo'la oladi.

Fikrimizning isboti sifatida quyida biz nemis va o'zbek xalqlarining salomlashuv va xayrlashuv jarayonlarida ishlatadigan so'z va birikmalarini qiyosiy jihatdan qarab chiqamiz.

Ma'lumki O'zbekistonda birinchi marta kishilar uchrashganda bir-birlari bilan „Assalomu-alaykum“ ( bu so'z arab tilidan o'zlashgan bo'lib, „Sizga tinchlik tilayman“ degan ma'noni bildiradi). Bunga javoban „Va-alaykum assalom“ („Sizga ham tinchlik tilayman“) deb aytiladi. Salomlashuvning bu shakli o'zaro hurmat ma'nosida ifoda etiladi. Qariyalar, shuningdek mehmonlarga nisbatan hamisha shunday salomlashish talab etiladi. Bu kabi salomlashuvda o'ng qo'lning ko'krakka

qo'yish va biroz egilish bilan suhbatdoshga nisbatan chuqur hurmat aks ettiriladi.

Bu salomlashuv shaklining qisqartirilgan shakllari, masalan „Salom alaykum“ yoki „Salom“ ham mavjud. Ammo bu salomlashuv shakllari faqat tanishlar, qarindoshlar yoki tengdoshlar o'rtasida ishlatiladi. Shuningdek bunday salomlashuv shakllaridan katta yoshdagilar yoshlarga nisbatan ham foydalanishadi.

Salomlashuv jarayonida hol-ahvol so'rash ifodalari ham qo'llaniladi. Masalan „Ahvollaringiz qanday?“ (Wie geht es Ihnen?), „Ishlaringiz qanday ketayapti?“ (Wie steht es mit Ihrer Arbeit?), „T'zingizni qanday his qilayapsiz? (Wie fühlen Sie sich?)...

Xuddi o'zbek tili so'zlashuv nutqida bo'lgani kabi nemis so'zlashuv nutqida ham bunday birikmalarni qisqartirilgan holatda uchratishimiz mumkin. Masalan:

o'zbek tilida: „Ishlar qanday?“ yoki „Ishlar qalay?“;

nemis tilida: „Wie geht es?“ yoki „Wie geht's?“

Bu kabi ahvol so'rashlarga og'zaki so'zlashuv uslubida ko'pincha qisqa javob beriladi.

Masalan:

Zo'r – Prima. Sehr gut;

A'lo – Ausgezeichnet;

Yaxshi –Gut;

Trtacha – Mittelmäßig.

Nemis va o'zbek xalqlari turli xil salomlashuv va ahvol so'rash shakllariga ega bo'lishsa-da, bu ikki mamlakatda ishlatiladigan so'rashuvdagi qisqartmalar, to'liqsiz gaplar deyarli bir-biriga yaqindir. Misol uchun:

Ahvollar qalay? – Wie geht's?

Ishlar qalay? – Wie steht's?

Yaxshimisiz? – Geht's Ihnen gut?

Tuzukmisiz? – Geht's Ihnen gut?

Durustmisiz? – Geht's Ihnen wohl?

Ketayaptimi? – Geht es?



Yaxshimi? – Ist es gut?

Zrrmi? – Ist es toll?

Brladimi? – Ist es normal? Ist es ok?

Bu kabi so'rashishlarga noadabiy qatlam doirasida quyidagi javoblarni berish mumkin:

Hudoga shukur. – Gott sei Dank;

Aqqol.- Prima. Schön;

Brladi. – Ja gut. Normal;

Ketayapti. – Es geht;

Yuribman. – Geht so. Mittelmäßig;

Nari-beri. – Mittelmäßig;

Shunchaki. –Geht so. Nicht so gut.

Salomlashuv jarayonida har bir yurtning ahloq-odob qoidalariga ham amal qilish kerak bo'ladi. Masalan O'zbekistonda erkaklar faqat bir-birini yaxshi taniganda, qalin do'stlar bo'lgandagina quchoqlashib salomlashishi mumkin. Ayollar esa xuduiga qarab yoki quchoqlashib, yoki yelkaga qo'l tashlab dalomlashishadi. Salomlashuv jarayonida ayollar o'pishib ko'rishishlari mumkin. Ammo erkaklarga o'pishib ko'rishish xos emas.

Qo'l uzatishda ham quyidagi etiketlarga amal qilish talab etiladi:

Birinchi uchrashuvda yoshi katta kishi qo'l uzatadi. Ayol kishi biror erkak bilan o'zi istasagina qo'l uzatib salomlashishi mumkin. Agar ayol (yoki ayollar) bir qancha erkaklar bilan ko'cha-kuyda uchrashib qolsa, u holda ular qo'l uzatib so'rashishmaydi. Katta davralarda hattoki eru xotinlar ham o'pishib yoki qo'l berib salomlashishmaydi.

O'zbekistonda salomlashuv qonun-qoidalariga ko'ra erkak (yoki ayol) o'zining jamiyatdagi yoki biror bir holatdagi o'rniga qarab salom berishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan avtomobildagi, otdagi, velodipeddagi odam boshqalarga, tik turgan odam o'tirganlarga birinchi bo'lib salom aytishi talab etiladi.

Bunday salomlashuvdagi axloq-odob normalarining faqat ayrimlarinigina biz Germaniyada qisman ko'rishimiz mumkin.

Xayrlashuv jarayonida o'zbeklarda odatda „xayr“, nemislarda "auf Wiedersehen" ifodalari ishlatiladi. Bu o'rinda yana quyidagi birikmalar va gaplardan ham foydalaniladi:

Yaxshi boring/Yaxshi qoling –Mach's gut;

Xudo Sizga yor b'tlsin. – Grüß Gott;

Oq ytl (ibora). – Gute Fahrt;

Ytlingiz bexatar b'tlsin/Safaringiz bexatar b'tlsin. – Gute Reise;

Salom ayting. – Grüßen Sie;

Salomat b'rling. – Seien Sie gesund.

Shuningdek so'zlashuv nutqida quyidagicha qisqartmalar yoki to'liqsiz gaplar ham xayrlashuv jarayonida ishlatiladi:

Xay ( "xayr"ning qisqartirilgan shakli). – Ciao;

B'tpti. Mayli. – Ok. Tschüss;

K'trishguncha. – Bis bald;

Yana k'trishguncha/Qayta k'trishguncha.- Bis zum nächsten Mal. Bis bald;

Ertagacha. – Bis Morgen;

Yana k'trishamiz. – Hoffentlich treffen wir uns.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, shunga amin bo'lamizki, o'zbek tili kabi nemis tilining ham so'zlashuv nutqida so'z qo'llash bo'yicha potentsial imkoniyatlari ancha keng ekan.

Bu potentsial imkoniyatning naqadar yuksakligini zamonaviy nemis adabiyoti vakillaridan biri bo'lgan Ludvig Thomaning "Lausbubengeschichten" hajviy asariga kiritilgan kundalik so'zlashuv nutqiga oid so'z, so'z birikmalari va iboralarni tahlil qilish orqali kuzatishimiz mumkin.

*Da saß nun dieses langbeinige, magere **Frauenzimmer**, das mit ihren sechzehn*

*Jahrenso wichtig und **altklug die Nase in die Luft hielt**, als hätte es nie mit einer Puppe gespält. (S.8.)*

Frauenzimmer - uy qizi, asosan uydan chiqmaydigan qizlarga nisbatan ishlatiladi;

altklug - bu o'rinda "alt"so'zi yordamida so'zning kuchaytirma darajasi hosil qilinmoqda;

die Nase in die Luft halten - ibora: tumshug'i osmonda bo'lmoq.

*Der Rektor muss mich aber nicht gelobt haben, denn Herr von Rupp sagte öfter zu mir: " **Weiß der Teufel**, was du treibst. Du musst **ein verdammter Holsfuchs sein**, das deine Professoren so auf dich **loshacken**. (S.12.)*

weiß der Teufel - ibora: "birgina shaytonning o'ziga ma'lum" ma'nosida;

ein verdammter Holsfuchs sein - o'taketgan ayyor bola bo'lmoq ma'nosida ishlatilgan;

loshacken - "hacken" fe'lidan (o'tin yormoq) olingan bo'lib matnda "tishi o'tmoq" iborasi vazifasida kelgan.

*Der Raithel lachte mich und sagte , es sei doch gar nichts dabei, **mit einem Backfisch anzubinden**. (S.14)*

Backfisch - nemis so'zlashuv nutqida kelishgan, chiroyli qiz ma'nosini ifodalaydi, bu so'z bilan hosil qilingan "mit einem Backfisch anbinden" iborasi esa " qaddi-qomati kelishgan, chiroyli qiz bilan aloqaga kirishish" ma'nosida ishlatilgan.

*Auf einmal wurde ich aufgerufen und sollte weiterfahren. Weil ich aber an die Marie gedacht hatte, wußte ich nicht einmal das Kapitel, **wo wir standen**, und da **kriegte ich einen brennroten Kopf**. (S.15)*

"wo wir standen" jumlasini orqali matnda " biz qayerga kelib qolgan" degan ma'noni anglashilmoqda;

"einen brennroten Kopf kriegen" birikmasi esa "boshi qotib qolmoq = og'ir ahvolga

tushib qolmoq" tushunchasi o'rnida qo'llanilgan.

*"Was suchs du mein Sohn?" fragte der Rektor. Er antwortete nicht gleich, weil er ein **Trumm Brot** im Mund hatte. Er **schluckte** es aber doch **hinunter** und sagte dass er ein griehisches Wort sucht, welches er nicht finden kann. (S.20)*

der Trumm (ko'pincha ko'plikda ishlatiladi die Trümmer - qoldiq, biror narsaning qolgan qismi), matnda "bir bo'lak non, bir luqma non" ma'nosida;

hinunterschlucken - "yamlamay yutmoq" ma'nosida.

*Dabei riß er den Mund auf, dass man seine **abcheulichen Zähne** sah, und **spuckte furchtbar** und **rollte seine Augen**. (S.21)*

abscheuliche Zähne ( "abscheulich" so'zi so'zlashuv nutqida salbiy bo'rttirish ma'nosini ifodalagan) = qo'pol ko'rinishdagi tishlar;

furchtbar spucken - "yoqimsiz" tupurmoq" ma'nosida.;

seine Augen rollen - "ko'zlarini olaytirmoq" ma'nosida.

*Der Onkel schaute mir immer zu und sagte: "**Machst** du es wieder recht **dumm?** **Wart'** nur, du **Lausbub**, ich **komm** dir schon noch" (S.26)*

dumm machen –ahmoqona bajarmoq, qila olmaslik;

"Wart' nur, du Lausbub, ich komm dir schon noch" (mazkur jumla to'lig'icha kundalik so'zlashuv nutqi birliklaridan, ya'ni uch o'rinda so'z va luqmani qisqartishdan tashkil topgan.

*Der **schimpft einen furchtbar** und sagt "**mistiger Lausbub**", und zu mir hat er einmal gesagt, er **haut das größte Loch in die Wand mit meinem Kopf**. (S.29)*

einen furchtbar schimpfen = qattiq urushmoq;

mistiger Lausbub ("Mist" so'zlashuv nutqida "juda yomon, ahmoq, bemaza, iflos" ma'nolarida) = yaramas shumtaka;

mit dem Kopf in die Wand das Loch hauen - boshi bilan devorda kovak yasamoq, boshini devorga ishqalamoq.

*Aber wie alle fort waren, ist er auf einmal in das Zimmer gekommen und hat zu mir gesagt: "Mach dass du heimkommst, du **Lauskerl**, du grober! Sonnst **wird die Supp' kalt**". (S.29)*

Lauskerl = Lausbube;

"die Suppe kalt werden" - so'zlashuv nutqida yuzaga kelgan ibora: "ishni sovutmoq" ma'nosida.

*Dann hat er gesagt: "**Armer Verlorener! Ich habe immer Nachsicht gegen dich geübt, aber ein rüudiges Schaf darf nicht die ganze Herde anstecken**". (S.30)*

Armer Verlorener - murojaat ma'nosida: Ey, buzuq bola;

Nachsicht gegen j-n üben - ibora: "kimgadir toqat qilmoq" ma'nosida;

ein rüudiges Schaf steckt die ganze Herde an - maqol: Bir tirraqi buzoq butun podani buzadi.

*Die Frau Geheimrat war schon da und hat gerufen: "**Miezi! Miezi! Elis, haben Sie Miezschen nicht gesehen?**" (S.44)*

Miezi, Miezschen - mushukka nisbatan qo'llanilgan so'zlar.

*Und er hat gesagt: "**Vüloicht, ich woiß es nücht**". (S.45)*

Vüloicht, ich woiß es nücht = dialektda: Vielleicht, ich weiß es nicht.

*... hat der Geheimrat gesagt: "**Das üst wüder düser ruchlose Lauspube gewösen**". (S.45)*

Das üst wüder düser ruchlose Lauspube gewösen = dialektda: Das ist wieder dieser

verfluchter Lausbube gewesen.

*Da sind meiner Mutter die Tränen heruntergelaufen, und der Geheimrat hat gesagt: **Woinen Sü nur, gute Frau! Woinen Sü über Üren mißratenen Sohn!**"*  
(S.46)

Woinen Sü nur, gute Frau! Woinen Sü über Üren mißratenen Sohn = dialektda:  
Weinen Sie nur gute Frau! Weinen Sie über Ihren mißratenen Sohn.

*Ich glaube aber nicht, dass sie einen solchen Bauch hatten und so **abgelatschte Stiefel** wie er.* (S.68)

abgelatschte Stiefel = burishgan etik.

Bu o'rinda shunga ham alohida e'tibor qaratishimiz lozimki, nemis so'zlashuv nutqidagi "furchtbar" so'zi ko'chma ma'noda turli xil bo'rttirish, kuchaytirish so'zlarini ifodalay oladi. Masalan:

*Ännchen schaute mich an und sagte: "Du hast gewiß **ein furchtbar schlechtes Zeugnis** heimgebracht, Ludwig?"* (S.100)

ein furchtbar schlechtes Zeugnis = juda yomon baho.

*Sie hat furchtbar laut geweint , und hat geschrien: "Es kommt von dem vielen Studieren, und sie machen unsern Buben noch kaputt.* (S.100)

Mazkur gapda qo'llanilgan "hat furchtbar laut geweint" birikmasini "nihoyatda qattiq ovozda yig'ladi" deb o'zbek tiliga o'girishimiz mumkin. Ushbu jumlada yana quyidagi og'zaki nutq unsurlari mavjud:

unsern Buben = "unseres Kind" o'rnida;

kaputt machen = "müde machen" o'rnida.

*Da hat der Lehrer **furchtbar gehustet**, und **der Dicke** hat gesagt, ob es heute kein Mittel nicht mehr gibt für freche Lausbuben.*(S.102)

furchtbar husten = "qattiq yo'talmoq" ma'nosida;

der Dicke - metonimiya: "der dicke Junge" ma'nosida.

*Ich **habe** mich **furchtbar geärgert**, dass sie über unseren Vater so redet, und ich habe gedacht, ob ich nicht vielleicht schon heute das Feuerwerk mit dem Papagei mache.* (S.110)

furchtbar ärgern – qattiq jahli chiqmoq.

*Ich sagte, der Michel **kann furchtbar gut zielen**, und ich bin es einmal nicht gewesen.* (S.113)

*Ich habe gesagt, dass weiß ich nicht, vielleicht ist es der Schreiner Michel gewesen, der hat eine Holzspritze und kann **furchtbar weit spritzen** damit.* (S.113)

*Und sie **hat** mich **furchtbar angeschaut**, und der Papagei **hat** mich auch **furchtbar angeschaut**.* (S.114)

*Da ist meine Mutter auch hinausgegangen, und bei der Tür ist sie stehen geblieben und hat gesagt, dass sie sich fest vorgenommen hat, bei diesem Aufenthalte sich nicht mit der Tante zu zerkaufen, aber **ist es furchtbar schwer**.* (S.115)

*Ich glaube, er **hat** sich **furchtbar gewundert**, wie es losgegangen ist.* (S.124)

*Ich habe gesagt, das dauert mir zu lang, und man braucht doch kein Gymnasium nicht, wenn man nach Indien will. In den Büchern steht immer, dass ein Knabe durchbrennt und auf dem fremden Erdteil **furchtbar viel Geld kriegt** und auf*

*Weihnachten als reicher Mann heimkommt. (S.126)*

*Der Seitz hat gegrüsst und **hat seine Augen furchtbar gross gemacht.** (S.126)*

*Er hat gesagt, er hofft es auch, und dann hat er seinen Hut gehalten und **hat furchtbar gegähnt**, dass seine Augen naß geworden sind. (S.127)*

*Eine Zeitlang ist gar nichts geredet worden; der Onkel Pepi hat seine Schnupftabakdose in der Hand herumgedreht, und die Rosa hat aus ihrer Samttasche die Spitzen geholt und **hat furchtbar gehäckelt**, und die Tante Theres hat gestickt, und die Tante Elis hat ihre Hände über den Bauch gefaltet und hat herumgeschaut. (S. 131)*

*Und die Tante Theres **hat furchtbar mit dem Kopf genickt** und hat mit ihrer Stricknadel in die Zähne gestochen. (S. 132)*

*Den Reiser Franz **habe ich furchtbar gern.** (S. 136)*

*Er läßt mich von seiner Zigarre rauchen und **lacht furchtbar**, wenn ich ihm erzähle, dass ich jemand geärgert habe, und er sagt, dass man sich von einem Professor nichts gefallen lassen muss. (S. 136)*

*Aber Cora hat ihr die Hand geschtreichelt und hat gesagt: "Du musst nicht böse sein, **Mamachen**, mit Ludwig. Er ist nur **ein bisschen strenge mit uns Mädchen**". Dann hat sie zu Ännchen geblinzelt, und dann **haben sie furchtbar gelacht** (S. 140)*

Mamachen = erkalash ma'nosida: onajon;

ein bisschen strenge mit uns Mädchen = ein bisschenstreng min den Mädchen.



*Da hat er gesagt, vielleicht freut es sie , weil der Seitz studiert hat; **er ist aber ein Salbenreiber**, und er hat rumme Beine, und er ist ein dummer Mensch, denn man einmal **furchtbar hauen muss**, weil er sich so einbildet. (S. 141)*

*"Es ist **furchtbar gemein**, wenn man die Leute nicht schlafen läßt" hat der Franz gesagt. (S.146)*

*Er hat sich umgedreht, und er hat sein Gesicht in das Gras gesteckt, und auf einmal **hat er furchtbar geweint**. (S.146)*

*Da hat er gesagt, vielleicht bin ich der einzige, mit dem er reden kann, und **er hat die Cora furchtbar lieb**. (S.147)*

*Sie haben die Leute aufgestellt und sind immer auf und ab, dass man in Reih und Glied geblieben ist, und habender Musik was angeschafft, und wenn sie vorne gewesen sind, hat hinten wer gerufen, das **sie haben furchtbar laufen müssen**, und wenn der Seitz wer gefragt hat, ob es bald losgeht, hat er gezappelt und hat gerufen, **er wird noch kaputt**. (S. 151)*

kaputt werden = sehr müde sein.

*Da hat ihn die Tante angeschaut, als wenn sie ihn nicht kennt, und **sie hat ihre Augen ganz furchtbar gemacht**. (S.156)*

die Augen ganz furchtbar machen = ko'zlarini katta-katta ochmoq.

*Der Franz hat mich mit dem Fuß angestoßen, aber ich habe nicht aufgehört, und ich habe gesagt, **der Franz kann auch furchtbar gut springen**, und wenn er will,*

*kann er einen furchtbar hauen.* (S.159)

**furchtbar gut springen** - juda yaxshi sakramoq;

**furchtbar hauen** - bemalol burdalab (chavaqlab) tashlamoq.

*Und dann hat ihr Ännchen **den Kaffe eingeschenkt**, und wie die Cora gesagt hat, **er ist ein bisschen schwarz**, hat Ännchen **furchtbar geweint** und hat gesagt, sie hat es nicht mit Fleiß getan, und die Cora darf ihr nicht **bös sein**.* (S.175)

**furchtbar weinen** - o'kirib yig'lamoq.

*Aber sie hat auch geweint, weil es heisst: in die Heimat der Braminen, und es ist **furchtbar weit**.* (S.177)

**furchtbar weit sein** - juda uzoq bo'lmoq.

*Es wird **furchtbar lustig**, aber der Franz traut sich nicht, und er hat es doch gesagt, wie er hinter dem Holzstoß waren, dass er sich **Traut**.* (S.180)

**furchtbar lustig werden** - o'ta quvonarli bo'lmoq.

*Unsere Marie hat auch geheult, wie sie mit dem Bindenger fort ist, aber in ein paar Tage hat meine Mutter gesagt, dass sie **einen furchtbar glücklichen Brief geschrieben hat** und da hat man gemerkt, dass sie froh war.* (S.182)

**furchtbar glücklichen Brief schreiben** - baxt hissi ufirib turgan xat.

*Er möchte es **furchtbar gern sagen**, aber wenn er dich sieht, versteckt er sich hinter dem Holzhaufen.* (S.183)

**furchtbar gern sagen** - astoydil aytmoq.

*Sie hat gesagt, es ist wahr, dass ich lernen muss, aber nicht wegen die Mädchen, sondern wegen meine alte Mutter, **die so furchtbar gut ist** und die so gerne*

*einen Stolz haben möchte mit mir. (S.183)*

**furchtbar gut sein** - judayam yaxshi bo'lmoq.

*Da bin ich hinaus, und ich habe gedacht, dass es ganz anders war, als wie ich gemeint habe, aber sie ist ein feines Mädchen, **und ist es furchtbar schade**, dass sie fort muss. (S.184)*

**furchtbar schade** - ming afsuski;

fort müssen = zurückfahren müssen.

*Es ist **furchtbar**, was sie für Worte gemacht haben, dass man nicht hat aufhören können zum Weinen. (S.185)*

**furchtbar sein** - dahshatli bo'lmoq.

*Meine Mutter hat gesagt, dass es so hell und reinlich ist, und **da kann ich furchtbar studieren**, und ich soll nicht zu oft bei dem Fenster hinausschauen, und **ich muss Ordnung haben im Schrank und auf dem Tisch**, und wenn ich vielleicht recht fleißig bin, **darf ich wieder heim**. (S.196)*

**furchtbar studieren** - bemalol o'qimoq;

Ordnung haben - tartibga keltirmoq;

heim dürfen - uyga ketishga ruxsat olmoq.

*Der Max hat **furchtbar gelacht**, und er hat gesagt, dass der Semmelmaier Josef heißt, und er ist ganz gewiß. (S.202)*

**furchtbar lachen** - qattiq kulmoq.

*Er hat die Augen **furchtbar gekugelt** und hat gesagt, es ist eine Auszeichnung von dem höchsten Kriegsherrn, und ob ich glaube, **dass man es kriegt**, wenn man*

*heimliche Briefe schreibt über Brennsuppen. (S.204)*

**die Augen furchtbar kugeln** - ko'zlarini baqraytirmoq.

*Ich war furchtbar zornig, und ich habe es dem Max erzählt, und er ist auch zornig geworden. (S.205)*

**furchtbar zornig sein** - juda asabiylashmoq.

Es platscht, und die Leute unten lachen, weil es so gelb ist, und die Leute oben reißen das Fenster auf und **schimpfen furchtbar**. (S.206)

**furchtbar schimpfen** - qattiq urushmoq.

*Es muss ein furchtbarer Spaß werden, wenn die Rakete herumfährt und nicht hinaus kann und es tut, als wenn der Feind schießt, und man kann sehen, wie er tapfer ist. (S.210)*

**ein furchtbarer Spaß** - yaxshi hazil.

Ba'zan "furchtbar" so'zi bilan kelgan birikma kinoya ma'nosini ham bildirishi mumkin. Masalan:

*Weil die "furchtbar noble" Gesellschaft nur gemäß ihren Konventionen wahrzunehmen vermag, muss sie, sobald ihr Wahres und Echtes entgegentritt, esunbelehrbar ignorieren und als Lüge denunzieren: "Dein Lügen hilft dir gar nichts; ich weiß esrecht wohl an wen der Brief ist. (S.231)*

**"furchtbar noble"** - o'ta jirkanch

Mazkur gapda esa "furchtbar" so'zining asl ma'nodoshi "schrecklich" so'zi ham ko'chma ma'noda ishlatilgan. Shu o'rinda ishlatilgan "den Hof machen" iborasi esa "olib qochmoq" ma'nosida qo'llangan:

*Und zu Ännchen hat gesagt, dass sie ein hübsches Mädchen ist, und wenn sie ein junger Mann wäre, möchte sie ihr **schrecklich den Hof machen**.* (S. 125)

**schrecklich den Hof machen** - ibora: shu zahoti olib qochmoq.

Quyidagi gaplarda qo'llanilgan "furchtbar" va "abscheulich" so'zlari o'zaro zid ma'nolilik hosil qilgan:

*Die Cora hat mir gleich gefallen. Sie hat schwarze Augen und schwarze Haare und **lacht furchtbar**. Aber nicht so wie die Rosa von der Tante Theres, die immer die Hand vortut, dass man ihre **abscheulichen Zähne** nicht sieht.* (S. 125)

**furchtbar lachen** - samimiy kulmoq;

**abscheuliche Zähne** - qo'rqinchli (qing'ir-qiyshiq) tishlar.

Quyidagi gapda ikki o'rinda "furchtbar" so'zining ko'chma ma'nolaridan va bir o'rinda bu so'zning ko'chma ma'nosi o'rnida kelgan mubolag'adan (der dumpfe Knall) foydalanilgan:

*Es hat einen dumpfen Knall gemacht, und das Küchenmädchen hat gleich **furchtbar geschrien** und ist hereingelaufen, und wie sie Tür aufgemacht hat, da **hat es furchtbar nach Pulver gerochen**, und der Gang ist voll Rauch gewesen.* (S.122)

**einen dumpfen Knall machen** = o'ta qattiq ovoz chiqarmoq;

**furchtbar schreien** = dahshatli qichqirmoq;

**furchtbar nach Pulver riechen** = kuchli darajada atir-upaning hidi kelmoq.

Shuningdek, nemis so'zlashuv nutqida "furchtbar" so'zining ma'nodoshi sifatida "gottlob" (so'zma-so'z tarjimasi "xudo maqtovi) yasama so'zining ishlatilishini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

*Ännchen ist **gottlob das gesundeste Mädchen**, was ist gibt, und kocht alle Tage und macht die ganze Arbeit im Haus. (S.117)*

*Meine Mutter hat freundlich gelacht und hat gesagt, **es geht ihr gottlob gut**, und sie ist ein kerngesundem Mädchen. (S.128)*

**j-m gottlob gut gehen** - kimningdir ahvoli juda yaxshi bo'lmoq.

*Der Seitz ist aufgestanden und hat gesagt, er muss jetzt gehen, und **er hat gottlob gesehen**, dass meine Mutter in der besten Gesundheit ist, und es findet sich vielleicht schon eine Gelegenheit, dass er auch Fräulein Nichte kennen lernt, weilman jetzt an den warmen Abenden öfter auf den Keller geht. (S.129)*

**gottlob sehen** - yaqqol ko'rmoq, aniq bilmoq.

Shuningdek, "kriegen" fe'li ham xuddi "furchtbar" so'zi kabi og'zaki nutqda bir qator ko'chma ma'nolarda ishlatilishini quyidagi misollar isbotlaydi:

*Sie **kriegte ein Rosakleid** dazu und **heulte furchtbar**, weil **die Näherin** so spät fertig wurde. (S.54)*

**ein Rosakleid kriegen** = ein Rosakleid anziehen;

**furchtbar heulen** = uvvos tortmoq

**die Näherin** = in der Nähe stehende Frau.

*Wenn man zu ihm geht, **kriegt man einen Heiligenbild**, aber nie kein Geld oder zu essen. (S.58)*

**einen Heiligenbild kriegen, aber nie kein Geld oder zu essen** = "pul yoki ovqat emas, balki ilohiy kitobni qo'lga kiritmoq" ma'nosida.

*Der Seitz hat gesagt, er hat davon gehört, und ist es sehr interessant, dass wir von so weit **einen Besuch kriegen**, und er hat als Apotheker ein großes Interesse für Indien, weil die meisten Arzneien davon herkommen. (S.129)*

**einen Besuch kriegen** = einen Gast empfangen.

Yoki:

*Da hat Tante Elis den Kaffelöffel auf den Tisch hineingeworfen und hat gefragt, ob es vielleicht fein ist, wenn ein Mädchen so **mit ihren Augen herumschmeißt auf alte Männer**, die nie gescheit werden, und ob es vielleicht anständig ist, **einen Mann aufzuhetzen gegen seinen Kaffe**, den er **daheim kriegt**?* (S. 133)

mit den Augen auf j-n herumschmeißen = kimgadir ko'zini uchirmoq;

j-n gegen etw. aufhetzen = kimnidir nima bilandir o'ziga rom qilmoq;

**daheim kriegen** = uyidan olib kelmoq.

*"Er ist nicht ungezogen" hat Cora gesagt; wir müssen bloß probieren, dass wir seine Gunst wieder kriegen* (S.142)

**Gunst kriegen** = ishonchini oqlamoq.

*Cora hat gelacht, und sie hat gesagt, sie muss es ihrem Papa schreiben, dass unsere Mutter jetzt noch Ständchen kriegt.* (S.144)

**Ständchen kriegen** = qattiq ishlamoq.

*Dann wird die Cora hereingeholt, und er muss den Arm um sie legen, und dann werden Ännchen und ich hereingeholt, und meine Mutter weint ein bisschen, und dann **kriegt jedes in der Reihe herum einen Kuß**.* (S.147)

**einen Kuß kriegen** = bo'sa olmoq, o'pmoq.

Yoki:

*Da hat sie gesagt, ich muss jetzt da bleiben, weil in das andere Zimmer ein Graf kommt, aber später **kriege ich vielleicht ein anderes**.* (S.199)

**ein anderes kriegen** = einen anderen Mitwohner treffen.

*Sie hat gesagt, , es gibt kein Mögen nicht, die Knaben müssen essen, **was sie kriegen**. Der Semmelmeier hat gesagt, dass der Reis nahrhaft ist, und in Asien leben*

*alle Leute davon, und die Völker, wo man Fleisch isst, sind keine guten Soldaten nicht, als wie die andern, wo man bloß **Reis kriegt**.* (S.200)

**was sie kriegen** = was sie zum Essen bekommen;

**Reis kriegen** = Reis essen.

*Und dann ist er wieder fortgegangen ins Wirtshaus. Er kauft sich lauter Bier von dem Geld, **was er leider von unsere Eltern kriegt**, und es ist auch nicht wahr gewesen, dass er auch gibt auf uns.* (S. 202)

**von unsere Eltern kriegt** = von unseren Eltern bekommen.

*Wenn auf dem Strafzettel gestanden ist, **dass man wegen Ungezogenheit zwei Stunden kriegt**, hat er immer gesagt, was eine Ungezogenheit ist.* (S.202-203)

**zwei Stunden kriegen** = zwei Stunden verlieren.

*An jedem Donnerstag haben wir bloß **eine Brennsuppe gekriegt**, und der Semmelmeier hat gesagt, er probiert uns, ob wir Spartaner sind.* (S.203)

*Ich habe gesagt, dass ist keine Lüge ist, und ich habe Hunger, und wenn ich bloß **eine Brennsuppe kriege**, kann ich nicht satt sein.* (S.203)

**eine Brennsuppe kriegen** = "qaynatma sho'rva ichmoq" ma'nosida.

***Er hat die Augen furchtbar gekugelt** und hat gesagt, es ist eine Auszeichnung von dem höchsten Kriegsherrn, und ob ich glaube, **dass man es kriegt**, wenn man heimliche Briefe schreibt über Brennsuppen. **Man kriegt es nicht dafür**, sondern man muss ein Spartaner sein und eine Entbehrung machen und schwitzen und frieren und den Tod im Angesicht haben. **Dann kriegt man es**, weil man ein tapferer Spartaner ist, und er muss die Jungen erziehen, **dass sie auch einmal die Auszeichnung kriegt**, und wir müssen am Donnerstag die Brennsuppe essen, weil es eine Vorübung ist für den Krieg.* (S.204)



**dass man es kriegt** = bunga erishishadi;  
**man kriegt es nicht dafür** = bunga erishib bo'lmaydi;  
**die Auszeichnung kriegen** = katta obru-e'tibor qozonmoq.

*Der Semmelmaier hat es geschrieben, und dann hat er gefragt, **wo man die Eier herkriegt**. (S.209)*

**wo die Eier herkriegen** - tuxumni qayerdan olmoq.

Quyidagi gapda esa yozuvchi "Eierdotter" (tuxumning sarig'i) so'zi oldidan laut (baland ovozda) sifatini keltirish bilan so'zlashuv nutqidagi metaforik birikmani paydo qilgan:

*Er hat aber den ganzen Bart **voll lauter Eierdotter**", sagte ich. (S.52)*

Mazkur juhlada esa yozuvchi so'zlashuv uslubidagi vosita asosida dastlab so'z birikmasi, keyin esa ibora hosil qilganligini ko'rishimiz mumkin:

*Am meisten hat es mich gefreut, dass der Onkel Hans kam mit Tante Anna. Er ist Förster, und ich war schon **in der Vakanz** bei ihm. Er war lustig mit mir und hat immer gelacht, wenn ich ihm die tante Frieda vormachte, **die verdammte Wildkatze**, sagte er. Heute hat er einen Hemdkragen an und **fuhr alle Augenblicke mit der Hand an seinen Hals**. (S.58)*

die verdammte Wildkatze = buzg'unchi yovvoyi mushuk (Friedaga nisbatan)

alle Augenblicke mit der Hand an seinen Hals fahren = ibora: hammaning nigohini qo'li bilan bo'yniga qaratmoq.

Shuningdek yuqoridagi juhlada "in der Vakanz" birikmasi "in den Ferien" birikmasi o'rnida ishlatilgan. "Vakanz" so'zining "Ferien" ma'nosida qo'llanilishini yana quyidagi gapda ham uchrata olamiz:

*Unterwegs hat Ännchen zu mir gewispert: " Du wirst sehen, Ludwig, sie **bleibt die ganze Vakanz**" (S.106)*

Quyidagi gapda esa Ludwig Thoma erkak va ayol munosabatlarini ochib berishda so'zlashuv nutqining unsurlaridan samarali foydalana olgan:

*Da klopfte Onkel Pepe an sein Glas und hielt eine Rede, dass die Familie ein schönes Fest feiert, indem sie **ein aufgeblütes Mädchen aus ihrer Mitte einem wackeren Manne gab und mit ihm ein Band knüpft** und die Versicherung hat, dass es zum Guten führt. (S. 60-61)*

ein aufgeblütes Mädchen = "yetilgan, turmush qurishga yoshi yetgan qiz" ma'nosida;

aus ihrer Mitte geben = "o'zining yurak quridan" ma'nosida;

ein wackerer Manne = "ein tapferer Mann" o'rnida;

ein Band knüpfen = "Ehe schließen" ma'nosida.

Mazkur gapda esa "Glas" so'zi metonimiya sifatida ("Glas" so'zi bilan yozuvchi shishadagi ichimlikni nazarda tutayapti) hamda "Weiß der Teufel" iborasi kirish so'z sifatida qo'llangan:

*Dann **trank er sein Glas auf einmal aus** und schüttelte jedem die Hand, der an ihm vorbeikam, und sagte immer wieder: "**Weiß der Teufel, der müsste dasitzen!**" (S.61)*

Bolani kichraytirish uchun so'zlashuv uslubida qo'llangan kichraytirish-erkalash so'zi hamda bu so'z vazifasida kelgan ko'chma ma'noli so'zdan yozuvchi quyidagi jumlada mohirona foydalana olgan:

*Ich glaubte, dass er mich schon examinieren wollte, aber meine Mutter rief: "Ja, Ludwig, du hast ja Mimili noch gar nicht begrüßt und siehst doch dein kleines Nichtchen zum erstenmal" (S.65)*

Mimili = "Mimi" ismining kichraytirish-erkalash shakli;

kleines Nichtchen = "murg'akkina bolacha" ma'nosida.

Quyidagi jumlada esa muallif "ko'zlarini olaytirmoq" iborasining kundalik so'zlashuv nutqidagi shaklidan va "Wasser" (suv) so'zining "ko'z yoshi" vazifasida kelishidan mohirona foydalana olgan:

*Tante Fanny war erstaunt und nickte mit dem Kopfe auf und ab, und der Onkel Pepe machte große Augen auf mich und hatte Wasser darin.* (S.69)

Mazkur gapda qo'llangan "Mark" (nemis pul birligi) metonimiya vazifasini, "Hosensacke" so'zi "Hosentasche" (shimning cho'ntagi) so'zining bo'rttirilgan shakli vazifasini o'tamoqda.

*"Es gibt Kinder, welche zwei und drei Mark aus einem Hosensacke stehlen und keine Unruhe verspüren", sagte Onkel Pepe.* (S.78)

Mazkur gapda esa muallif "kriegen" fe'lining va "fad" olinma so'zining ko'p ma'noligidan ustalik bilan foydalangan:

*Ich sagte, dass wir keine gegessen haben, und ich habe mich hingesetzt und einen Kaffe gekriegt. Es ist furchtbar fad gewesen.* (S.82)

keine essen = metonimiya: "keine Knödel essen" o'rnida;

einen Kaffe kriegen = Kaffe trinken;

furchtbar fad sein = sehr schmackvoll sein.

"Ko'z qismoq" iborasi nemis kundalik so'zlashuv tilida "Augen machen" frazeologik birikmasi bilan berilishini quyidagi jumlada kuzatishimiz mumkin:

*Aber das dicke Mädchen sagte: "Ich finde ihn gräßlich; er macht Augen auf mich. Ich fürchte, dass er bald dichtet, wie der letzte.* (S.82)

Ushbu gapda shuningdek "dichten" fe'li bilan "yaqin munosabatda bo'lmoq"

tushunchasi ifodalangan bo'lsa, "der letzte" so'zi "der letzte Mann" o'rnida metonimiya vazifasini o'tamoqda.

Yozuvchi tomonidan asarda ko'plab so'zlashuv uslubidagi metonimiyalar qo'llanganini quyidagi misol orqali ham ko'rishimiz mumkin:

*Dann sind wir an den Weiher beim Rafenauer gekommen, und wir haben das Dampfschiff hineingetan. **Die Räder sind gut gegangen**, und es ist ein Stück weit geschwommen.* (S.86)

die Räder = "das Dampfschiff" o'rnida.

Yoki:

*Der Heinrich hat ihm gleich gesagt, wer wir sind. Er hat es ihm in das Ohr gewispert, und ich habe gehört, wie er bei meinem Namens gesagt hat: "Er ist **der Letzte** in unserer Klasse und hat in der Religion auch einen **Vierer**"* (S.92)

der Letzte = "der letzte Junge" o'rnida;

Vierer = "yomon baholar" o'rnida.

*Nun, ihr Jungens, **gebt mir einmal eure Zeugnisse**, dass ich sie mit dem **Heinrich mit seinigen** vergleichen kann* (S.92)

Zeugnisse geben = "Zeugnisse zeigen" ma'nosida;

mit dem Heinrich mit seinigen = "mit den Zeugnissen von Heinrich" birikmasi o'rnida.

Quyidagi jumlada ishtirok etgan so'zlashuv tili unsuri "Saububen"(cho'chqadan tarqalgan) va uning ma'nodoshi sifatida ishlatilgan "miserabelige" otlashgan so'zi vulgar so'zlar hisoblanadi:

*Er hat geschrien: "Hab ich enk, **ihr Saububen, ihr miserabligen**.*

Mazkur gapda qo'llangan "cho'chqa" (die Sau) so'zi ham "iflos" ma'nosida

kelgan:

*Und der Kondukteur ist gekommen und hat es angeschaut und hat brüllt: "Wer war die Sau?" (S.97)*

Quyidagi jumlada esa muallif "viel" so'zidan sifat o'rnida foydalangan va bu olmoshdan oldin aniq artiklni keltirgan:

*Die Tante hat das Bild angeschaut und hat wieder gesagt: "Da sieht man es ganz deutlich, wo er **das viele Geld** gebraucht hat. (S.110)*

"rühren" fe'li (harakatga keltirmoq)ning jonlantirish vazifasida so'zlashuv uslubida qo'llanishiga quyidagi misol yaqqol isbot bo'la oladi:

*Beim Essen ist die Tante noch immer zornig gewesen; man hat es gekannt, weil ihre Nase vorne ganz weiß war und weil sie mit dem Löffel so schnell **die Suppe gerührt hat**. (S. 114)*

Nemis so'zlashuv nutqida orqasida kam qo'lgan odamlarga nisbatan "Glatze" so'zi ishlatiladi. (qarang: Langenscheidt. Power Wörterbuch Deutsch, S. 365). So'zlashuv uslubining bu unsuridan yozuvchi Steinberger ismli shaxsni tasvirlashda oqilona foydalangan:

*"Er **hat** aber **eine Glatze**", hat meine Tante gesagt. "Und er schielt mit dem linken Auge (S.115)*

"Schlingel" so'zi esa nemis so'zlashuv nutqida hamisha ham qatiyatli bo'lmagan, biroq unchalik qupollik ham qilmaydigan bolaga nisbatan ishlatiladi.(qarang: Langenscheidt. Power Wörterbuch Deutsch, S. 715)

Mazkur so'zdan adib Steinbergerning Ludwigga qaratilgan undalmasida foydalanganini ko'ramiz:

*Er ist bald aufgestanden, weil er in seine Kanzlei muss, und er hatte meine Mutter auf die Hand geküsst und hat vor der Tante eine Verneinung gemacht, und mich **hat** er lustig **beim Ohr genommen** und hat gesagt: "Sei recht brav, wenn du es fertig bringst, **du Schlingel!**" (S.120)*

Mazkur gapda ishlatilgan "beim Ohr nehmen" iborasi ham so'zlashuv uslubi elementi bo'lib, bu o'rinda "qulogidan ushlamoq" degan ma'noni ifodalamoqda.

Ushbu jumlada esa ikkita metonimik so'z va iboradan hamda bitta metaforik birikmadan samarali foydalanilganining guvohi bo'lishimiz mumkin:

*Die Tante **hat** noch **eine Tasse voll geschenkt** und hat gesagt, sie hat noch keine Familie gesehen mit so **kaputte Nerven**, und sie muss sich wundern, wo das herkommt. (S.120)*

eine Tasse = statt eine Tasse Kaffee;

eine Tasse voll schenken = statt "eine volle Tasse Kaffee haben";

kaputte Nerven = statt "ungesunde Nerven".

"Schenken" (sovg'a qilmoq) fe'lidan hosil qilingan "einschenken" yasama so'zi esa og'zaki so'zlashuv nutqida "flirten" (mulozamat qilmoq, uzatmoq) ma'nolarida ishlatiladi:

*Meine Mutter war sehr lustig, weil so viele Leute beisammen waren, und Cora hat gleich die Kaffeekeanne genommen und **hat eingeschenkt**. Sie hat den Onkel Pepe gefragt, ob er **hell oder dunkel will**. Da hat er gesagt, er **mag dunkel gern**, und hat Cora angeschaut und hat gelacht. (S.129-130)*

Yuqoridagi jumlalarda qo'llanilgan "hell", "dunkel" sifatlari ham o'z navbatida so'zlashuv unsurlari sifatida kelib, kofening rangi va kofening kamroq yoki ko'proq solinishi ma'nolarini ifodalagan.

*Aber Cora hat getan, als wenn sie nichts merkt, und hat **der Tante***

*eingeschenkt, und dann hat sie **der Rosa einschenken wollen.** (S.130-131)*

Yoki:

*Und dann hat ihr Ännchen **den Kaffe eingeschenkt**, und wie die Cora gesagt hat, **er ist ein bisschen schwarz**, **hat Ännchen furchtbar geweint** und hat gesagt, sie hat es nicht mit Fleiß getan, und die Cora darf ihr nicht **bös sein.** (S.175)*

Quyidagi gapda ishlatilgan " das böse Mundwerk" birikmasi ham og'zaki so'zlashuv nutqining unsuri bo'lib, "yomon og'iz (og'zidan hamisha bulmag'ur gaplar chiqadigan kishilarga nisbatan ishlatiladi) metaforasini tashkil etgan:

*Da hat meine Mutter gesagt, dass unser Vater sich schon gekümmert hat um sie und dass er oft gesagt hat, es tut ihm leid, wenn die Frieda nirgends bleiben kann **wegen ihrem bösen Mundwerk.** (S.122)*

Kishi juda achchiqlanganda og'zidan chiqadigan quyidagi vulgar so'zlarham so'zlashuv nutqi mahsuli hisoblanadi:

*Da ist die Tante herausgefahren aus ihrem Zimmer und hat geschrien "Was sagst du, es ist bloß der Papagei? **Du rohes Ding! Du abscheuliches Ding!**" (S.123)*

*Du rohes Ding! Du abscheuliches Ding! = Sen yaramas bola! Sen buzuq bola!*

Quyidagi juhlada kelgan "famos" so'zi inglizcha "famous" (mashhur) so'zining dialektdagi invarianti hisoblanadi:

*Wie die Cora gekommen ist , hat sie mir die Hand geschüttelt, als wenn sie ein Junge wäre, und sie **hat meine Mutter am Kopf genommen** und hat gesagt, dass sie **eine famose Frau** ist, und hat sie geküsst. (S. 125)*

Mazkur gapda ishlatilgan "am Kopf nehmen" iborasi ham aynan so'zlashuv uslubida qo'llaniladigan ibora sanaladi va "umarmen" (quchoqlamoq) ma'nosini ifodalaydi.

Xuddi shunday ma'noda muallif ""beim Kinn nehmen" iborasidan o'rinli foydalana olgan:

*Die Cora hat meine Mutter **beim Kinn genommen** und hat gesagt, "**Altes Mamachen**, du trinkst gar keinen Kaffee nicht; er ist ganz **echt von Indien**. (S.131)*

beim Kinn nehmen = iyagidan quchoqlamoq;

altes Mamachen = erkalash ma'nosida: onajon;

echt von Indien sein = "haqiqatdan Hindistondan keltirilgan bo'lmoq" ma'nosida.

Quyidagi gapda qo'llanilgan "schieben" fe'li "stecken" fe'li o'rnida ishlatilgan va shu asosda so'zlashuv uslubiga xos unurni o'zida ifoda etgan:

*Die Cora ist neben Ännchen gesessen und hat ihr **einen Zwieback in den Mund geschoben**, und dann haben alle zwei lustig gelacht. (S.131)*

Quyidagi o'rinda qo'llangan "Salbenreiber" (so'zma so'z tarjimasi: moy ishqalovchi) "xushomadgo'y, tilyog'machi" ma'nosini ifodalagan:

*Da hat er gesagt, vielleicht freut es sie , weil der Seitz studiert hat; **er ist aber ein Salbenreiber**, und er hat rumme Beine, und er ist ein dummer Mensch, denn man einmal **furchtbar hauen muss**, weil er sich so einbildet. (S. 141)*

Quyidagi gapda esa biz so'zlashuv uslubida predlogning talabiga ham e'tibor berilmasligining guvohi bo'lamiz:

*Da hat die Musik aufgehört, und die Mädchen haben sich bei die Herren eingehängt und sind zu ihre Tische. (S.162)*

bei die Herren = "bei den Herren" o'rnida (bei D.);

bei die Herren einhängen = so'zlashuv nutqida: "erkaklarning yoniga joylashib o'tirib olmoq" ma'nosida.

Xuddi shunday holatni "mit" predlogi asosida yuzaga kelgan birikmada ham uchratish mumkin:



*Mit was sie dann reisen muss, hat sie gefragt.* (S.181)

mit was = "womit" olmoshli ravishi o'rnida.

Nemis tilida uchraydigan "heim" so'zi ma'lumki "yashirin", "sirli" ma'nolaridan tashqari "uy", "vatan" ma'nolarini ham ifoda etadi. Shuningdek bu so'z so'zlashuv uslubida "uyga ketmoq", "uyda bo'lmoq" kabi birikmalar tarkibida ham kelishi mumkin:

*Ich habe gesagt, er ist heim.* (S.172)

er ist heim = er ist zu Hause.

*Da hat meine Mutter gesagt, es ist nicht recht, dass wir der Cora ihr Herz schwer machen, und sie fährt doch heim zu ihrem lieben Papa.* (S.185)

der Cora ihr Herz schwer machen = unter etwas Cora leiden;

heim fahren = zur Heimat fahren, nach Hause fahren;

Papa = Vater.

Yoki:

*Meine Mutter hat gesagt, dass es so hell und reinlich ist, und da kann ich furchtbar studieren, und ich soll nicht zu oft bei dem Fenster hinausschauen, und ich muss Ordnung haben im Schrank und auf dem Tisch, und wenn ich vielleicht recht fleißig bin, darf ich wieder heim.* (S.196)

Quyidagi jumlada biz "die Papp" (qalin qog'oz) so'zidan og'zaki so'zlashuv nutqida fe'l (pappen = qalin holda ustiga qo'yilmoq) hosil qilinganini ko'ramiz:

*Und Ännchen hat Butterbrot gestrichen, und meine Mutter hat Honig darauf gepappt, und sie haben alles der Cora hingelegt, und sie haben selber gar nichts gegessen* (S.176)

Yoki quyidagi gapga nazar tashlaylik:

*Der andere hat die Haare ganz hineingepappt gehabt, und der hat die Augen immer auf den Boden getan.* (S.200)

die Haare hineinpappen = "sochni orqaga qarab taramoq" ma'nosida;

die Augen auf den Boden tun = "ko'zlarini yerdan uzmaslik" ma'nosida.

Quyidagi gaplarda yozuvchi so'zlashuv uslubi unsurlari sifatida bir so'z o'rnida boshqa biridan foydalangan va shuningdek ikkinchi gapda dialektdagi fonetik hodisa (tovush almashuvi)ni samarali ishlatgan:

*Ich habe vor lauter Zorn geweint, weil meine Mutter dreißig Eier zählen muss, und ich habe gesagt, ich muss den Alfons hauen, bis ich nicht mehr kann.* (S.210)

vor lauter Zorn weinen = "juda ezilib yig'lamoq" ma'nosida;

hauen (bolta bilan yormoq) = so'zlashuvda "burda-burda qilmoq", "chavaqlab tashlamoq" ("schlagen" fe'li o'rnida).

*Der Mann hat gesagt, er weiß alles, und dann hat er seine Hand auf meinen Kopf getan, und er hat gesagt, er muss also einen tüchtigen Menschen aus diesem Purschen machen, nicht wahr?* (S.194)

die Hand uf j-n Kopf tun = die Hand auf j-n Kopf stellen;

Pursche = Bursche

Nemis tili so'zlashuv nutqida ishlatiladigan "kaputt" so'zi ham turli xil ko'chma ma'nolarni hosil qilishi mumkin. Jumladan bu so'z "ulmoq", "yo'q bo'lmoq", "vayron bo'lmoq", "buzilmoq", "shikastlanmoq" kabi ma'nolarda ishlatiladi. Quyudagi gaplarda qo'llanilgan "kaputt" so'zi bilan yozuvchi derazaning ag'darilib tushishi ma'nosini ifoda etgan:

*Ich habe gesagt, das ist wahr, und wir haben jetzt immer Eier gekauft, wenn wir aus dem Gymnasium sind. Wir haben es entdeckt, dass kein Fenster nicht kaputt geht, wenn man es mit dem Ei trifft. ... Aber es geht nicht kaputt.* (S.206)

mit dem Ei treffen = "tuxum bilan urilsa" ma'nosida.

Quyidagi gapda esa "kaputt" so'zi bilan muallif kishining o'ta asabiy holatga tushishini ifodalagan:

*Die Tante **hat** noch **eine Tasse voll geschenkt** und hat gesagt, sie hat noch keine Familie gesehen mit so **kaputte Nerven**, und sie muss sich wundern, wo das herkommt. (S.120)*

Mazkur gapda esa shum bolaga nisbatan ishlatiladigan noadabiy qatlam so'zlari yonma-yon kelganligini ko'rishimiz mumkin:

*Wenn man ein bisschen stark an das Fenster klopft, sagt er, dass man **ein Fliegel** ist und **ein Lausbub** und eine **Rotznase**. (S.206)*

Shuningdek shum bolaga nisbatan qo'llanadigan so'zlarni shevada aytilishini quyidagi jumla orqali kuzatsa bo'ladi:

*Er hat lange auf mich geleuchtet, und auf einmal hat er gesagt: "**Lauspube!**", und er ist gegangen, und bei der Tür er stehen geblieben und hat gesagt : "**müserabliger!**" (S.207)*

Og'zaki so'zlashuv nutqida ishlatiladigan "verschufen" fe'li quyidagi o'rinda "verraten" (sotmoq, sirini birovga aytmoq) tushunchasini anglatmoqda:

*Der Max hat gleich gemerkt, dass uns **der Alfons verschuftet hat**, und er hat gesagt, er weiß es, dass man die Eier schmeißt. (S.209)*

### **3.2. Nemis so'zlashuv nutqi shakllanishiga boshqa tillardan o'zlashgan lug'aviy birliklarning ta'siri**

Nemis tili shunday tillar qatoriga kiradiki, bu til o'z tarixiy taraqqiyoti

jarayonida ko'pdan-ko'p olinma so'zlarni to'plagan va endilikda bu olinma so'zlarning aksariyati fonetik, leksik va morfologik o'zgarishlarga uchragan holda nemis tili lug'at boyligidan o'rin olgan.

Bizga ma'lumki, zamonaviy nemis tili shakllanishida eng avvalo bobo tillardan qadimgi lotin, qadimgi yunon hamda qadimgi got tillarining roli beqiyosdir. O'z navbatida o'rta asrlardan nemis tiliga frantsuz tilining lug'aviy birliklari tez o'zlasha boshladi. Bunga sabab, aynan o'rta asrlarda Frantsiya davlati o'z saroyadabiyoti, feodal madaniyati, ahloq-odob, pazandachilik kabi tomonlardan boshqa davlatlarga nisbatan yuksak taraqqiyotga erishgan edi. Frantsuz tili va madaniyati natijasida nemis tilida quyidagi so'zlar paydo bo'ldi:

Palast - fr.palais; Turnier -fr. Tournnoi; Lanze - fr. lance; Manier - fr. manier; Pavillion - fr. pavilion; Flöte - altfr. flauti;; blond - fr. blond; Form - fr. forme; Preis - fr. prix; fein - fr. fin; Abenteuer - fr. aventure; fehlen - fr. faillir; parlieren = sprechen - fr. parler; elegant - fr. elegant; kokett -fr. coquet; Mode-fr. mode; Möbel - fr. meuble, Omelette -fr. omelette; Armee - fr. armee; Bataillon -fr. bataillon; Kompanie - fr. compagnie; Parade - fr. parade; Garnison - fr. garnison; Kommandeur - fr. commandeur va boshqalar (qarang: A.Iskos, A.Lenkova. Deutsche Lexikologie. S. 97-98.).

Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, Yevropadagi uyg'onish davri ilk bor Italiyada yuzaga kelganligi ham italyan tili lug'aviy birliklarining boshqa tillarga kirib kelishiga turtki bo'ldi. Natijada 15-asr mobaynida va 16-asrning birinchi yarmida nemis tilida ham bir qator kelib chiqishi italyanacha bo'lgan so'zlar paydo bo'ldi. Nemis tiliga o'zlashgan bunday so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

a) musiqa sohasida: Oper, Sopran, Baß, Tenor, Fuge, Konzert, piano, forte, crescendo...

b) arxitektura sohasida: Galerie, Korridor, Fassade...

d) moliyaga xos atamalar bo'yicha: Bank (ital. banka), Bankrott (ital.banka rotta = umgewandte Bank); Dukaten (ital. ducato)...

e) harbiy sohadan: Soldat (ital. soldato), Proviant (ital. provianda), Panzer (ital. panciera), Granate (ital. granata) Scharmützel (ital. scarmuzzia)...

f) oziq-ovqatlar: Samt, Spinat, Spagetti ...

14-17-asrlarda nemis tiliga ingliz tilidan ko'proq dengiz orqali savdo-sotiq qilish, kemasozlikka oid ba'zi bir so'zlar o'zlashgan bo'lsa (masalan: Boot, Lotse, Flagge, Kabine, Paketboat va boshqalar, 18-19-asrlarga kelib Angliyaning yirik kapitalistik davlatga aylanishi natijasida, bu tilda turli-tuman yangi so'zlar paydo bo'ldi hamda bu so'zlarning aksariyati qo'shni mamlakat tillariga ham kirib bordi. Bu davrda ingliz tilidan nemis tiliga o'zlashgan so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

a) fan va texnika sohasida: Logarithmus, Spektrum, Barometer, Darwinismus, Evolutionstheorie...

b) sanoat, savdo-sotiq, moliya sohasida: Trust, Tunnel, Koks, Export, Import, City, Cheviot, Scheck, Budget, Banknote, Prozent...

d) siyosiy atamalar bo'yicha: Agitator, Bill, Boykott, Imperialismus, Interview, Leader, Meeting, Parlament, Reporter, Votum, Trade-Union...

e) sport sohasida: Box, Boxer, Fußball, Rekord, Hockey, Jockey, Jury, Match, Lawn-Tennis, Sport, Tourist, Start, Trainer, trainieren, Jacht...

f) moda va pazandachilik san'ati bo'yicha: Comfort, comfortabel, Bar, Dandy, Flirt, Gentleman, Klub, fashionable, Frack, Makkintosh, Plaid, Raglan, Schal, Smoking, Sweater, Clown, Boston, Lunch, Grog, Pudding, Punsch, Sandwich, Whisky, Whist, Picknick...

20-asrga kelib ingliz tilidan nemis tiliga so'z o'zlashishi yanada kuchaydi. Jumladan bu davrda nemis tili lug'at boyligidan quyidagi ingliz so'zlari o'rin oldi:

Zelluloid, Film, Kodak, Musik-Hall, Girl, Trick, Jumper, Pullover, Trolley, Tank va boshqalar.

O'z navbatida ikkinchi jahon urushidan keyin nemis tili lug'at tarkibiga

inglizcha so'zlarning amerikanacha variantlari kirib kela boshladi. Bunday so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Bikinis, Jeans, Bluff, Businessman, Job, Story, Song, Blues, Spiritual, Boß, fifty-fifty, groggy, tipp top, Twens, Teenager va boshqalar (8, 100-101).

Hozirgi paytga kelib fan-texnika taraqqiyotidagi asosiy o'zgarishlar dastlab ingliz tili orqali ifoda etilib, keyin boshqa tillarga kirib bormoqda. O'z navbatida bunday inglizcha atamalar boshqa tillarga ba'zi bir o'zgarishlar bilan kirib bormoqda. Jumladan nemis tili so'zlashuv nutqida paydo bo'lgan va hozirda nemis adabiy tiliga ham kirib kelayotgan shunday so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

jobben = arbeiten o'rnida;

mailen = elektronische Post schicken o'rnida;

Karroten = Möhre o'rnida;

Girlfreund, Boyfreund = Freundin, Freund o'rnida...

Shunga ham e'tibor qaratish lozimki, bir tildan ikkinchi bir tilga o'zlashgan so'zlar assimilatsiya, ya'ni yangi tilga moslashuviga ko'ra quyidagi turlarga xos bo'ladi:

a) morfologik assimilatsiya (bunda so'z asosan morfologik qo'shimchalar hisobiga farqlanadi);

b) orfografik assimiliatsiya ( bu o'rinda o'zlashgan so'zlardagi ma'lum bir harflar yangi tilning tovush tizimiga qarab o'z shaklini o'zgartiradi;

d) to'liq assimiliatsiya (bunday so'z o'zlashuvida so'z o'z holicha, hech bir grammatik o'zgarishlarsiz qabul qilinadi;

e) noto'liq assimiliatsiya (assimiliatsiyaning bu turida urg'u tushushi asosiy ahamiyat kasb etadi).

### **3.3. Nemis yoshlari tilidagi lug'aviy birliklarning umumiy tavsifi**

Ma'lumki, Yevropada o'tgan asrning oxiridan boshlab yoshlar tiliga

(Jugendsprache) katta e'tibor qaratila boshlandi. Fan-texnikaning jadal sur'atlarda rivojlanishi natijasida butundunyo yoshlari ham o'ziga xos tillarda gaplashadigan bo'lishdi. Yoshlar tilining o'ziga xos belgilariga zamonaviy fan-texnika atamalarining qisqartirilgan hamda mahalliy shart-sharoitlarga moslashgan shakli hamda hozirda jahonning ko'plab mamlakatlarida dunyo tili sifatida tan olingan ingliz tili leksik birliklarining invariantlari kiradi. Biz nemis yoshlarining so'zlashuv nutqini chuqurroq tahlil qilish maqsadida "Jugendsprache" (15) lug'atidan joy olgan leksik birliklarni qarab chiqishni lozim topdik va shu lug'at asosida nemis yoshlar nutqida keng qo'llaniluvchi lug'aviy va frazeologik birliklar ichidan quyidagi so'z va iboralar boshqalariga nisbatan faol ekanligiga ishonch hosil qildik.

1) Freund (do'st), Kamerad (jo'ra, oshna) ma'nosida:

Kumpe, Homie (17-b.); Kumpel, Atze (140-b.); Digger (146-b.); Pello, Pal (165-b.); Uschi (174-b.)

2) Alkohol trinken (spirtli ichimlik iste'mol qilmoq) o'rnida:

dämpfen (bo'kmoq)

3) rauchen (chekmoq) ma'nosida:

kiffen, harzen (25-b.); knörzen, Krebs füttern (27-b.); lungenbräunen (28-b.); quarzen (29-b.); reden gehen, smöggen (30-b.); twixen=heimlich rauchen (yashirincha chekmoq)

4) gut, ausgezeichnet, sehr gut (yaxshi, a'lo, zo'r) tushunchasini bildiruvchi so'zlar:

fett=phat (16-b.); toll, endgeil (147-b.); fett (148-b.); hammerst (153-b.); super, korall, krass, krasskonkret (158-b.); mies=sehr gut (161-b.); tight, toggo (173-b.)

5) Zigarette (sigareta) so'zi o'rnida:

Rauchen, Lungenbrötchen (28-b.); Pauseninhalte (29-b.); Tabakroulade (31-b.); Ziese (33-b.)

6) dick, fett (semiz) ma'nosida:

horozontal (47-b.); Michelinmännchen (53-b.); Teitenfisch = ko'kraklari keng, semiz odam; Tonnentäubchen (semirib ketgan qiz yoki ayolga nisbatan) (65-b.); Wandelmasse (66-b.); iachig (80-b.)

7) dünn, mager (oriq) ma'nosida:

Hungerturm (13-b.)

8) Mund (og'iz) so'zi o'rnida:

Knabberkiste (49-b.); Maul, Pappmaul = trockener Mund (59-b.)

9) Idiot (yaramas, iflos, buzg'unchi) o'rnida:

Alpake (71-b.); Kanisterköpfchen (80-b.); Opfer, Troffel (83-b.); Schwachmatt (85-b.); Spacko, Spast (86-b.)

10) blöd (kaltafahm) so'zi o'rnida:

BD (brain-damaged = miyasi zararlangan birikmasining qisqargan shakli) (72-b.); bewölkt (73-b.); Hohlpfosten (79-b.)

11) dumm (ahmoq) ma'nosida:

Bimse (73-b.); blond (74-b.) ; Duffie (75-b.); end (einfach nur dumm = sodda qilib aytganda o'ta ahmoq birikmasining qisqargan shakli) (75-b.); Hasenhirn (77-b.); hell wie zwei Dunkle sein (78-b.); hirnblind (78-b.); Intellegenzallergiker, Intellegenzparodist (79-b.); IQauf Zimmertemperatur haben (80-b.); Klöpskind, malle=doof, Noob (81-b.); Nullpeiler (82-b.); Teilzeitdenker (87-b.); Universaldilutant=Nichtskönner=NULL (89-b.)

12) urinieren (yengil hojat chiqarmoq) ma'nosida:

Boa würgen (94-b.); pinkeln, brunzen (95-b.); Elvis pressen, pfützen (97-b.); Sprudel zapfen (98-b.) ;

13) sich übergeben ( "erbrechen" so'zining ma'nodoshi = qayd qilmoq, qusmoq) o'rnida qo'llaniladigan so'z va iboralar:

Brockenlachen (103-b.); durch den Kopf gehen lassen (103-b.); Krümelhusten haben (104-b.); Toilette umarmen (107-b.); die Suppe umtüten (107-b.); hochessen (103-b.); Magenvulkan haben (105-b.)



- 14) Taschentuch (ro'molcha') ma'nosida:  
Nasenleerer (105-b.); Popelplane (106-b.)
- 15) Eltern (ota-ona) ma'nosida qo'llanuvchi so'zlar :  
Ellies (110-b.); Erzeugerfraktion, Supporter (118-b.)
- 16) Obdachlöser (boshpanasi yo'q kimsa) so'zi o'rnida:  
Banktester (110-b.); Parkpankphilosoph (125-b.)
- 17) Polizist (politsiyachi) so'zi o'rnida:  
Promillologe (117-b.); Rennleitung = Polizei, Trachtengruppe (118-b.)
- 18) essen (yemoq) ma'nosida:  
fratzen (121-b.); mupfeln (125-b.)
- 19) zu Mc Donald's gehen (Mak Donalld qahvaxonasiga bormoq) ma'nosida:  
maccen (124-b.); Restaurant zur goldenen Möwe gehen (125-b.)
- 20) Imbiss (tamaddi) so'zi o'rnida:  
Snaggi (125-b.)
- 21) flirten (mulozamat qilmoq) ma'nosida:  
äugeln (130-b.); bubeln, turteln (131-b.)
- 22) Attraktives Mädchen (jozibador, go'zal qiz) ma'nosida:  
Barbie, Bunny (131-b.) ; Chicka, Chichs (Pl.) (132-b.); Ische (133-b.);  
Östrogen-Weiher kelishgan ayol), Pornocheckerbraut (134-b.); Schleckrosine (134-b.); Tuse, Knödelkühe (135-b.)
- 23) cool, toll (kelishgan,zo'r) ma'nolarida:  
super, frisch (132-b.); erdig, hip, korrega (133-b.); absetzmäßig, gefahren (138-b.); cremig (144-b.); de luxe (145-b.)
- 24) gur aussehender Junge (kelishgan yigit) ma'nosida:  
Playa (133-b.); Schmacko, Schnitzel (134-b.)
- 25) Laß mich in Ruhe (meni tinch qo'y) iborasi o'rnida:  
Kauf dir Freunde (156-b.); klarkommen (203-b.)

- 26) Mobil Telephone (mobil telefon) atamasiga oid so'zlar:  
I Phone = Jesus-Handy (155-b.); Kommunikationskeule (157-b.); Cabertasche (159-b.)
- 27) egal (bari bir, bir xil, farqi yo'q) so'zi o'rnida:  
latex (159-b.); latte (160-b.); titte (173-b.)
- 28) nichtstun (dangasalik qilmoq) o'rnidagi so'zlar:  
rumpimmeln, schimmeln (168-b.)
- 29) im Komputer spielen (kompyuterda o'ynamoq) birikmasining ma'nodoshi:  
zocken (178-b.)
- 30) küssen (o'pmoq) fe'lining ma'nodoshlari:  
ansaugen (182-b.); Lippenbekenntnis haben (191-b.); rumhauen (194-b.);  
rumlecken, schnäbeln (195-b.); züngeln = sich küssen (196-b.)
- 31) stehlen (o'g'irlamoq) so'ziga ma'nodoshlik hosil qiluvchi so'zlar:  
rippen, abrippen (198-b.); djabern, klauen, chopsen, rappen, staxen (199-b.)
- 32) einverstanden (tushunarli) so'ziga sinonim sifatida:  
Baast (202-b.)
- 33) Diskothek so'zi o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan birliklar:  
Disko, Saundtempel (212-b.)
- 34) Laptop so'zi o'rnida: Googlebuch (217-b.)
- 35) Lehrer so'zi o'rnida: Googlebuch (217-b.)
- 36) Schüler so'zining ma'nodoshi: Schulbankglotzer (219-b.)
- 37) Krawatte, Schlips (galstuk, bo'yinbog') so'zlarining ma'nodoshi:  
Vertreterschäl (233-b.)
- 38) Hundchen (kuchukcha) so'zi o'rnida ishlatiladigan so'zlar:  
Flohtaxi, behaarte Bifi (236-b.); Fußhupe (238-b.); Teppichporsche (240-b.)
- 39) Katze (mushuk) so'zi vazifasida:  
Dachhase (237-b.); Kratze (238-b.); Sofaschlampe, Zeckentaxi (240-b.)
- 40) Kuh (sigir) so'zi o'rnida:

Milchtanker, milchgebender Rasenmäher (240-b.)

41) Kindchen, Säugling (bolacha, go'dak, mishiqli) so'zlari ma'nosida:

Baby, Bonsaikeimlung (237-b.); Kniebeißer (238-b.); Windelpupser (240-b.)

42) Fahrrad (velosiped) so'zi o'rnida:

Velo, Cycle, Alugurke (245-b.).

Ko'rinib turibdiki, nemis yoshlar nutqida ijtimoiy mavzudagi, sport va texnika mavzusidagi, sevgi-muhabbat mavzusidagi leksik birliklar sof so'zlashuv nutqi mahsuli sifatida namoyon bo'lmoqda.

### **3.4. Nemis so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi boshqa leksik va frazeologik unsurlar**

Nemis so'zlashuv nutqida ko'p sonli dialektlar bilan bir qatorda kasb-hunarga doir so'zlar, turli xil jargonlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy qatlamda keng qo'llaniladigan jargon so'zlarni odatda uchga bo'lib tasnif etishadilar.

1. Sinfy jargonlar (Klassenjargons);
2. Guruhlar doirasidagi jargonlar (Gruppenjargons);
3. Yashirin jargonlar (Geheimjargons = Argots). (8, 260)

Sinfy jargonlarning bir turi bu yuqori tabaqa kishilari nutqida ishlatiladigan jargonlardir. Nemis tilida bunday jargon turini "Adeljargons" ham deb atashadi.

Yuqori tabaqa kishilari jargonlariga quyidagilarni misol qilib keltirsa bo'ladi:

"liebes Mädchen" o'rnida "aimable (liebenswürdige) Prinzessin";

"in eigener Person" o'rnida "höchsselbst", "höchstpersönlich";

"mit Achtung" o'rnida "achtungsvoll", "hochachtungsvoll" va boshqalar.

Guruh doirasidagi jargonlar toifasiga ma'lum bir kasbdagi yoki uyushmadagi kishilarning jargonlari kiradi. Masalan, talabalar jargoni, sotuvchilar jargoni, o'g'rilar jargoni, qamalganlar jargoni, harbiylar jargoni. Hozirgi kunda Germaniyada keng

ko'lamda ishlatilayotgan "jugendsprache" ham aslida yosh avlodning o'ziga xos jargoni hisoblanadi. Bunday guruh jargonlari faqat o'sha guruh kishilarigagina tushunarli bo'ladi. Masalan, nemis harbiylari "Das Gewehr" (qurol) so'zi o'rnida "Knarre", "Soldatenbraut", "Mashinengewehr" (avtomat) o'rnida esa "Stottertante", "Tippmamsel", "Totenorgel", "Drehorgel", "Kaffemühle""Deuselmaschine" kabi jargon so'zlarni ishlatishadi.

Yoki nemis talabalari jargonida Bursche, Bacchante, Musensohn, Muse, Bruder Studiosi "Student" so'zi o'rnida ishlatiladi, o'qishga yangi qabul qilingan talabaga nisbatan "Fuchs, Mutterkalb, Weiber-Besen, Penalputzer so'zlari qo'llaniladi. Yoki nemis talabalari "kursdan kursga qolmoq" tushunchasini "backenbleiben", "klebenbleiben", "kirishib o'qish" tushunchasini "bimsen", "ochsen" kabi jargonlar bilan, "universitetga bormaslik" birikmasini esa "türmen", "schwänzen" fe'llari bilan ifoda etishadi.

Shuningdek, qamoqxonalarga tushgan nemislar o'z jargonida quyidagi so'zlardan foydalanishadi:

Knast, Zet, Zuchthaus -qamoqxona;

Cafe Viereck - qamoqxona kamerasi;

Knast schieben, Zet ziehen - qamoqqa olinmoq...

Nemis so'zlashuv tilida chiroyli qizga nisbatan uzoq vaqt mobaynida "Ding" (yaxshi narsa, ushoqcha) so'zlaridan jargon sifatida foydalanib kelingan. Hozirgi kuga kelib birgina "chiroyli, yosh qiz" tushunchasini turli xil jargonlarda ifodalasa bo'ladi. Masalan, nemis yoshlari jargonida (Jugendsprache) ham bu kabi jargon so'zlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan:

Sahneschnitte = ein besonderes hübsches Mädchen;

Torte = ein hübsches, junges Mädchen;

Disko-Torte = eher abwertend für ein hübsches, junges Mädchen;

Tussi = junges Mädchen;

Schnecke = ein eher hübsches Mädchen;

scharfe Käthe = ein aufreizendes Mädchen;

Alte = feste Freundin;

Tenee - Bopper = weibliche Teenager, die meist in Diskotheken anzutreffen sind;

Mutti, Tante, Suppermutter = ein besonders attraktives Mädchen;

übelste Alte, Kirsche, Weib, Ische, Praline, Madame, Klunte = junges Mädchen  
(12, 159-160)

Argotlardan ko'pincha chalg'ituvchi til (Gaunersprache) sifatida foydalanishadi. Bunda odatda biror bir tushuncha o'rnida ma'nosi yashiringan bo'lsada, ammo yaqin bo'lgan boshqa so'z ishlatiladi. Masalan nemis argotlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

"qamoqxona" o'rnida Kasten (quti), Käfig (qafas), Schule (maktab), höhere Töchterschule (oliy qizlar maktabi), Laushütte (qon suruvchi makon)...

"pul" o'rnida Heu (hashak), Staub (chang), Qualm (qalin tutun)...

Yana shunga e'tibor qarataшимiz kerakki, har qanday tilda ma'lum bir kasb egalari tomonidan ishlatiladigan maxsus so'zlar - kasbiy jargonlar ham uchrab turadi. Masalan nemis kasbiy jargonlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

Klettermaxe - qurilishda ishlatiladigan maxsus kichkina ko'tarma kran ma'nosida;

Klavier spielen - jinoyatchilar bilan ishlovchi kishilar orasida: barmoq izlarini olmoq ma'nosida;

Schnürsenkel - baliqchilikda: hali o'sib-ulg'aymagan kichkina ilonbaliqlar ma'nosida...

Albatta har qanday tilning so'zlashuv nutqida ma'nodosh so'zlarning qo'llanilish darajasi ham o'ziga xosdir. Og'zaki so'zlashuv nutqida sinonim so'zlar turlaridan ma'noviy sinonimlar hamda kontekstual sinonimlar nisbatan ko'p ishlatiladi. Quyidagi jumalarni o'zaro qiyoslash orqali fikrimizning isbotini ko'rishimiz mumkin:

Er ist mein **Kumpel** = Er ist mein **Freund**.

Er läuft **hastig** = Er läuft **sehr schnell**.

Er ist **frei** = Er ist **ledig**.

Bunday sinonimlardan adabiy asar qahramonlarining holati, o'zaro so'zlashuv nutqidagi muloqotida ham keng foydalaniladi. Masalan:

Graeber verstand es, und **es war** ihm **egal**. Alles was er wollte, war, dass seine Eltern lebten. Wo, das **war ihm** bereits **gleich**...Ihm war zumute wie jemand, der nach einer langen, ungewissen Gerichtsverhandlung endlich ein Urteil bekommen hat und dem **es fast gleichgültig ist**, ob es ein Freispruch ist oder nicht. (E.M.Remarque)

Yoki:

Freilich nur **beinahe**. Freilich nur **um ein Haar**. (L.Feuchtwanger)

Noch im **Lift** führte er dies weiter aus und verstummte es, als die Vettern im zweiten Stockwerk den **Aufzug** verließen. (Th.Mann)

Mann mußte darüber **diskutieren** können. Seine Balladen, solange er sie sang, rissen den Hörer hin: aber hatte er ausgesungen, dann war auch die Wirkung vorbei. Man konnte nicht mit Gründendarüber **debattieren**, keiner verwandelte sich durch sie (L.Feuchtwanger)

Auch in ihrer **Tracht** wurde sie die frühere Johanna; denn die modischen **Kleider**, die sie aus Frankreich mitbrachte, fielen in der durch weite Schichten ländlich eingestellten Stadt unangenehm auf. (L.Feuchtwanger)

Sinonim so'zlar va iboralardan keng foydalanish turli xil ijtimoiy qatlamlarga, jumladan jargonlarga va dialektlarga hos hodisadir. Masalan, janubiy nemis dialektlarida "Sonnabend" so'zi o'rnida "Sammstag", "Mädchen" so'zi o'rnida "Mädel", "Apfelsine" so'zi o'rnida "Orange" so'zlari qo'llaniladi. Shuningdek, kichik ijtimoiy qatlamlarda "attraktives Mädchen" (jozibador qiz) o'rnida "Backfish", "dumm" o'rnida "Brettkopf", "bezahlen" o'rnida "blechen", "die Schule nicht besuchen" birikmasi o'rnida "die Schule schwänzen" kabi ifodalar ma'nodoshlar sifatida ishlatiladi:

Sie trug ein kokettes rotes Strohhütchen mit blassen Röschen, wie ein siebzienjähriger **Backfisch** war sie gekleidet. (B.Kellermann)

Kundalik so'zlashuv nutqida ma'lum bir dominant so'z asosida hosil qilinadigan so'z oilalaridan ham samarali foydalaniladi. Masalan nemis tilidagi "kneifen" fe'li kundalik so'zlashuv nutqi birligi sifatida "sekin qismoq", "sekin siqmoq" ma'nolarini anglatadi. Bu so'zga zamonaviy lug'atlarda quyidagicha ta'rif berilgan:

kneifen - 1. j-n in etwas kneifen *nordd* zwicken. 2. etwas drückt sich in jemandes Haut und tut dabei weh: Die Hose kneift (mich) am Bauch. 3. von etwas kneifen *umg* etwas aus Faulheit oder Angst nicht tun = sich drücken.

Bu so'zdan hosil qilingan "die Kneipe" oti ham asosan noadabiy qatlam doirasidagi so'z bo'lib, u "borib, spirtli ichimlik ichish mumkin bo'lgan joy" ma'nosini anglatadi. (9, 480-481)

A.Iskos va A.Lenkovalar esa bu so'z orqali yuzaga keluvchi so'z oilasiga quyidagi lug'aviy birliklarni kiritishgan:

Kneif - kneifen - Kneifer - Kneifzange - kneip

Kneipe - Kneipabend -Kneipbruder - Kneipwirt - kneipen - Kneiperei. (8, 247)

O'z navbatida noadabiy qatlam so'zlari ham asta-sekinlik bilan adabiy qatlam doirasiga kirib borishi mumkin. Jumladan, nemis adabiy tili shakllanishi jarayonida puristik harakatning yuqori bosqichida (18-asrning oxiridan 20-asr boshlarigacha) ko'plab shevaga xos so'zlar o'zlashgan so'zlar o'rnida nemis tili lug'at boyligida paydo bo'lganligini e'tirof etib o'tishimiz joiz. Masalan, nemis puristik harakati vakili Philipp Zesen (1719-1789) quyidagi noadabiy qatlam so'zlarini o'zlashma so'zlar o'rnida qo'llashni taklif etadi:

"Imperativ" o'rnida "Gebrauchsweise";

"Mantel" o'rnida "Windfang";

"Fenster" o'rnida "Tageleuchter";

"Natur" o'rnida "Zeugemutter aller Dinge";

"Kloster" o'rnida "Jungfernzwinger";

"Nase" o'rnida "Löschhorn";

"Moment" o'rnida "Augenblick";

"Armee" o'rnida "Heer";

"Autor" o'rnida "Vervasser".

Nemis purizmining yorqin namunasini quyidagi she'rda ham ko'rishimiz mumkin:

Der Erzgott Jupiter, der hatte sich zu letzten  
Ein Gastmahl angestellt. **Die Weidinn** gab das Wild,  
**Der Glutfang** der Tabak, der Saal ward angefüllt.  
**Die Obstinn'** trug zu Tisch in einer vollen Schüssel,  
**Die Freia** saß und spielt mit einem Liebesschlüssel,  
**Der kleine Liebreiz** sang **ein Dichtling** auf den Schmaus,  
Der trink'ne Heldreich schlug **die Tägeleuchter** aus,  
**Die Feurinn'** kam dazu **aus ihrem Jungfernzwinger**  
Mit Schnäbeln angetan; Apollo ließ die Finger  
Frisch durch die Seiten gehn. **Des Heldreich Waldhauptmann**  
Fing lustig einen Tanz **mit den Huldinnen** an.

Mazkur she'rda yuqorida ta'kidlangan "Tägeleuchter", "Jungfernzwinger" so'zlaridan tashqari yana quyidagi noadabiy qatlam so'zlari (ularning aksariyati xudo nomlarining nemischa variantlari) o'zlashma so'zlar o'rnida ifoda etilgan:

"Diana" o'rnida "Weidinn";

"Amor" o'rnida "Liebreiz";

"Flora" o'rnida "Obstinn";

"Vulconus" o'rnida "Glutfang";

"Venus" o'rnida "Freia";

"Jupiter" o'rnida "Heldreich Waldhauptmann";



"Aurora" o'rnida "Feurinn";  
"Poem" o'rnida "Dichtling";  
"Grazien" o'rnida "Huldinnen".

Biroq shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, Zesen tomonidan ilgari surilgan bunday so'zlarning aksariyati keng xalq jamoatchiligiga yoqmad va natijada uzoq vaqt adabiy til doirasida o'z mavqeyini saqlay olmadi.

Philipp Zesen boshlab bergan bu an'anani Joachim Heinrich Kampe (1746-1818) davom ettiradi. Jumladan u tomonidan taklif etilgan so'zlarning ayrimlari adabiy tilda ham ishlatila boshlanganini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bu kabi so'zlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

"Arrest" o'rnida "Haft";  
"Kuvert" o'rnida "Umschlag";  
"Grad" o'rnida "Stufe";  
"Harmonie" o'rnida "Übereinstimmung", "Einklang";  
"Disharmonie" o'rnida "Mißklang".

Ammo Kampe tomonidan adabiytilga kiritilishi lozim deb hisoblangan so'zlar qatorida ko'plab noadabiy qatlamning tor doiralaridagina ishlatiladigan lug'aviy birliklar ham mavjud edi. Jumladan, bunday adabiy til normalariga to'g'ri kelmagan so'z va so'z birikmalari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

"Alibi" o'rnida "Anderswo";  
"Ideal" o'rnida "Urbild";  
"Jambus" o'rnida "Steiger";  
"Null" o'rnida "Hohlziffer";  
"Mosaik" o'rnida "Steinglasschilderei";  
"Patriarch" o'rnida "Erzvater";  
"Publikum" o'rnida "Gemeindewesen";  
"Quadrat" o'rnida "Gevierte";

"Tempo" o'rnida "die rechte Zeit";  
"Revolution" o'rnida "Umwälzung";  
"Januar" o'rnida "Neujahrsmonat";  
"März" o'rnida "Frühlingsmonat";  
"April" o'rnida "Wandelmonat";  
"August" o'rnida "Sommermonat";  
"September" o'rnida "Herbstmonat";  
"Oktober" o'rnida "Weinmonat";  
"November" o'rnida "Reifmonat";  
"Dezember" o'rnida "Wintermonat";  
"Kalender" o'rnida "Zeitweiser";  
"Kompaß" o'rnida "Nordweiser" va boshqalar.

20-asrning ko'zga ko'ringan puristlaridan biri bu Eduard Engel edi. Ultrapurizm namoyondasi hisoblangan Engelnig sa'yi harakatlari bilan nemis adabiy tili lug'at boyligida ko'plab nemischa so'z va iboralar yuzaga keldi. Masalan uning ta'sirida quyidagi so'zlar olinma so'zlar o'rnini egalladi:

"rekommandiert" o'rnida "eingeschrieben";  
"Kuvert" o'rnida "Briefumschlag";  
"Briefmarke" o'rnida "Postwertzeichen";  
"Billet" o'rnida "Fahrkarte";  
"Perron" o'rnida "Bahnsteig";  
"Coupe" o'rnida "Abteil";  
"Kondukteur" o'rnida "Schaffner";  
"Charge" o'rnida "Dienstgrad";  
"Kapitän" o'rnida "Hauptmann";  
"Terrain" o'rnida "Gelände";  
"Avangarde" o'rnida "Vorhut";  
"Arrieregarde" o'rnida "Nachhut";

"Premiere" o'rnida "Uraufführung";  
"Dekoration" o'rnida "Verzierung";  
"Publikum" o'rnida "Zuschauer";  
"Requisiteur" o'rnida "Gerätemeister";  
"Exemplar" o'rnida "Stück";  
"Extraausgabe" o'rnida "Sonderausgabe";  
"Publikum" o'rnida "Leser", "Lesekreis";  
"Redakteur" o'rnida "Schriftleiter";  
"Telegramm" o'rnida "Drahtbericht";  
"Chefredakteur" o'rnida "Hauptleiter";  
"Radio" o'rnida "Rundfunk";  
"Telefon" o'rnida "Fernsprecher";  
"Moment" o'rnida "Augenblick";  
"rendez-vous" o'rnida "Stelldichein";  
"vis-a-vis" o'rnida "Gegenüber";  
"Substantiv" o'rnida "Hauptwort";  
"Adjektiv" o'rnida "Beiwort", "Eigenschaftswort";  
"Verb" o'rnida "Zeitwort";  
"Singular" o'rnida "Einzahl";  
"Plural" o'rnida "Mehrzahl";  
"Diphthong" o'rnida "Doppellaut" va boshqalar

Yuqorida qayd etib o'tilgan so'zlarning aksariyati nemis adabiy tilida o'zlashgan so'zlarning o'rnini muqim egallagan bo'lsa, ayrimlari olinma so'zning ma'nodoshi sifatida ishlatilib kelinmoqda. Shu bilan birga Engel tomonidan taklif etilgan so'zlar orasida ham keng jamoatchilikka mos kelmagan lug'aviy birliklar ham uchrashini aytib o'tishimiz kerak. Bunday lug'aviy birliklarga esa quyidagilarni misol qilib keltirsa bo'ladi:

Windfang, Tagesleuchter, Gevierte, Jungfernzwinger... (Qarang: 8. 115-121)

Umuman olganda, 3 asrdan ziyod vaqt mobaynida hukm surgan puristik harakat natijasida nemis adabiy tilining lug'at boyligi o'z ichki imkoniyatlari hisobiga nisbatan boyib bordi. Nemis purizmining nemis tilshunosligidagi ijobiy tomoni shu bo'ldiki, noadabiy qatlam so'zlarining aksariyati adabiy tilning asosiy unsurlari sifatida tan olinib boshlandi. Bu narsa esa albatta nemis xalqining yagona millat sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma'lumki, og'zaki so'zlashuv nutqida nafaqat alohida olingan so'zlarning ko'chma ma'noda kelishi, balki yana yaxlit ko'chma ma'noli iboralar hamda tasviriy ifodalar ham ko'plab uchraydi. Kishilar o'zlarining kundalik nutqida suhbatdoshlari bilan yanada yaqin munosabatda bo'lish, o'z fikrlarini ularga sodda, lunda bayon etish maqsadida o'z hududida yashovchi odamlarga tushunarli bo'lgan turg'un so'z birikmalari va tasviriy ifodalardan keng foydalanishadi.

Jumladan, nemis xalqi orasida keng qo'llaniladigan bunday birliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:

den Mund halten (so'zma-so'z tarjimasi: og'izni ushlamoq) - "jim turmoq" ma'nosida;

auf die Beine kommen (so'zma-so'z tarjimasi: oyoqqa kelmoq) - "sog'ayib ketmoq" ma'nosida;

Spaß machen (so'zma-so'z tarjimasi: bahr qilmoq) - "huzur bag'ishlamoq", hazil qilmoq" ma'nolarida;

große Augen machen (so'zma-so'z tarjimasi: katta ko'zlar qilmoq) - "ajablanmoq" ma'nosida;

weit und breit (so'zma-so'z tarjimasi: uzoq va keng) - "har joyda" ma'nosida;

unter die Haube bringen (so'zma-so'z tarjimasi: qalin mato (rumol) ostiga olib kelmoq) - "uylanmoq", "turmush qurmoq" ma'nolarida;

mit Kind und Kegel (so'zma-so'z tarjimasi: bola va yarog'i bilan) - "butun oilasi, bola-baqراسi bilan" ma'nosida;

j-m auf die Finger sehen (so'zma-so'z tarjimasi: kimnidir barmoqlari ustida ko'rmoq) - "aniq kuzatmoq" ma'nosida;

lange Beine haben (so'zma-so'z tarjimasi: uzun oyoqlarga ega bo'lmoq) - "uzoq cho'zilmoq" ma'nosida;

den Kopf verlieren (so'zma-so'z tarjimasi: boshini yuqotmoq) - "yaxshi fikrlay olmaslik" ma'nosida;

die Nase stecken (so'zma-so'z tarjimasi: burunni tiqmoq) - "o'ziga bog'liq bo'lmagan narsaga aralashmoq" ma'nosida;

j-m einen Floh ins Ohr setzen (so'zma-so'z tarjimasi: kimnidir qulog'iga burga qo'ymoq) - "kimnidir xavotirga solib qo'ymoq" ma'nosida;

blau machen (so'zma-so'z tarjimasi: ko'k qilmoq) - "ishga bormaslik" ma'nosida;

auf der Bärenhaut liegen (so'zma-so'z tarjimasi: ayiqning terisi ustiga qo'ymoq) - "dangasalik qilmoq" ma'nosida;

Schwein haben (so'zma-so'z tarjimasi: cho'chqaga ega bo'lmoq) - "omadi chopmoq" ma'nosida;

die Katze im Sack kaufen (so'zma-so'z tarjimasi: mushukni qopda sotib olmoq) - "biror narsani bilmasdan xarid qilmoq" ma'nosida;

um ein Butterbrot kaufen (so'zma-so'z tarjimasi: bir buterbrotga sotib olmoq) - "juda arzon sotib olmoq" ma'nosida;

unter vier Augen (so'zma-so'z tarjimasi: to'rt ko'z ostida) - "yuzma-yuz" ma'nosida va boshqalar.

Shunisi qiziqki, nemis og'zaki so'zlashuv tilida bo'lgani kabi o'zbek tilining kundalik so'zlashuv nutqida ham yuqoridagi iboralarning aksariyati semantik jihatdan diyarli bir xil ma'noga egadir. Bu narsa esa ikki xalqning turmush tarzi, dunyoqarashidagi yaqinlikni o'zida ifoda etadi. Masalan:

nemis tilida

o'zbek tilida

den Mund halten	og'zini yummoq
auf die Beine kommen	oyoqqa turmoq
große Augen machen	ko'zlarini katta ochmoq
die Nase stecken	burnini tiqmoq
unter vier Augen...	to'rt ko'z ostida...

O'zbek va nemis tillarida har ikki tilning hayot tarzi diyarli bir xil ekanligidan dalolat beruvchi maqol va iboralar turli sohalarda uchrashini biz yana hayvon nomlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi frazeologik birikmalar misolida ko'rib chiqishimiz mumkin:

it-mushukday yashamoq = wie Hund und Katze leben (4. 135);

pashshadan fil yasamoq = aus einer Mücke einen Elephanten machen (4. 146);

na baliq, na gtsht = weder Fisch, noch Fleisch (6. 88);

tulkiday ayyor = ein schlauer Fuchs; (schlau wie ein Fuchs) (6. 34);

quyonyurak brlmoq = hasenfüßig sein (4. 131);

Yaxshi ot ham qoqiladi = Auch der beste Gaul stolpert einmal (10. 133);

Oxirgini it qopadi = Den letzten beißen die Hunde (10. 41);

Hurgan it tishlamaydi = Hunde, die viel bellen, beißen nicht (10. 41);

Qari tulki tuzoqqa tushmaydi = Ein alter Fuchs ist schwer zu fangen (10. 93);

Brrini qancha boqma, tozi brlmaydi = Der Wolf ändert das Haar und bleibt wie er war (10. 382);

Qarğa qarğaning krtzini chrtqimaydi = Eine Krähe hackt der anderen kein Auge aus (10. 95);

Sovğa qilingan otning oğziga (tishiga) qaralmaydi = Dem Geschenkten Gaul schaut man nicht ins Maul (6. 14);

Olmaning pishganiga qurt tushadi = Im schönsten Apfel ist der Wurm (10. 179);

Ammo tuya, ilon, chayon kabi hayvonlar asosan cho'l va chala cho'llarda yashashini, shuningdek tung'iz, tulki, ayiq kabi hayvonlar Yevrova mamlakatlari bilan

bog'liqligini inobatga olsak, xalq orasida keng iste'molda bo'lgan bunday frazeologiyalarda ko'proqmamlakatshunoslikka oid belgilar ko'zga tashlanadi, ya'ni bunday iboralardagi dominant so'zlar -hayvon, qush nomlari boshqa hayvon, qush nomlari bilan almashadi. Masalan:

a) itday och qolmoq

(so'zma-so'z tarjimasi: Hunger wie ein Hund haben) = Bärenhunger haben /Wolfshunger haben (4. 18);

b) ola qarg'a (so'zma-so'z tarjimasi: bunter Rabe) = schwarzes Schaf (6. 49);

c) ilonning yo'gini yalagan (so'zma-so'z tarjimasi: der Mensch, der Schlangenfett geleckt hat) = ein schlauer Fuchs (6. 34);

d) eshakday ishlamoq (so'zma-so'z tarjimasi: wie ein Esel arbeiten) = wie ein Pferd arbeiten (10.151);

e) bir o'q bilan ikki quyonni ovlamoq (so'zma-so'z tarjimasi: mit einem Schuss zwei Hasen jagen) = Zwei Fliegen mit einer Klappe schlagen (4.124);

f) bir qarg'a bilan qish kelmas (so'zma-so'z tarjimasi: Mit einem Rabe kommt kein Winter) = Ein Nachtigall macht keinen Frühling bzw. eine Schwalbe macht noch keinen Sommer;

g) Ilon ilonligicha, chayon chayonligicha qoladi (so'zma-so'z tarjimasi: Schlange bleibt wie eine Schlange, Skorpion bleibt wie eine Skorpion) = Bär bleibt Bär, holt man ihn auch ins Meer / Immer bleibt der Aff ein Aff, wird' er König oder Pfaff (10. 9);

h) Tuyaning kattasi ko'prikdan tayoq yeydi (so'zma-so'z tarjimasi: Das alte Kamel schlägt man auf der Brücke) = Ein rechtschaffener Ochse geht mitten durch den Dreck (10. 251) / Die teuersten Pferde sind in der Regel die Steckenpferde (10.256).

Shuningdek, har ikkala hududda yashovchi ayrim hayvonlarning nomlari bilan bog'liq iboralarda dominant so'zlar o'ziga yaqin ma'noli so'zlar bilan almashishining han guvohi bo'lish mumkin. Misol uchun:

o'zbek tilida dominant so'z "ot", nemis tilida - "ehak"

ot bir marta qoqiladi (so'zma-so'z tarjimasi: Das Pferd stolpert einmal) = Wo sich der Esel einmal stößt, da stößt er sich nicht wieder (10. 95).

o'zbek tilida dominant so'z "mushuk", nemis tilida - "sichqon"

bekorga mushuk oftobga chiqmaydi (so'zma-so'z tarjimasi: ohne Grund geht die Katze nicht in die Sonne) = In eine leere Scheune kommt keine Maus (10. 179).

o'zbek tilida dominant so'z "buzoq", nemis tilida - "qo'y"

bir tirraqi buzoq butun podani buzadi (so'zma-so'z tarjimasi: Ein räudiges Kalb steckt die ganze Herde an) = Ein räudiges Schaf steckt die ganze Herde an (10. 278).

o'zbek tilida dominant so'z "sichqon", nemis tilida - "qush"

Sichqonning tlgisi kelsa mushuk bilan tynashadi (so'zma-so'z tarjimasi: Wenn die Maus sterben will, da beginnt sie mit der Katze zu spielen) = Vögel, die früh singen, fängt am Abend die Katze (10. 186).

Shunisi e'tiborga molikki, iboralar o'zaro ma'nodoshlik yoki shakldoshlik xususiyatiga, shuningdek o'z zid ma'nosiga ham ega bo'la oladi. Masalan, nemis tilidagi "in Ordnung bringen" va "in Ordnung machen" iboralari o'zaro ma'nodoshlik hosil qilsa, o'z navbatida "im Stich lassen" iborasining olti xil ma'noda qo'llanilishini quyidagi misollar orqali kuzatsak bo'ladi:

a) j-m in den Gefahr verlassen

"Sage du mir: Kann ich meine Gruppe, kann ich meine Genossen im Stich lassen?" (H.Hermann)

b) j-m seinem Schicksal überlassen, j-n verlassen auch im abstrakten Sinn - kimnidir o'z taqdirida qoldirmoq

Sie las ein zweites, ein drittes Mal; dann erkannte sie, dass also auch dieser alte Messerschmidt, der ausschaute wie ein Monument der Biederkeit, sie im Stich gelassen hatte. Auch er hatte sie angeschmiert mit schönen Reden. (L.Feuchtwanger)

Wenn ein Gedächtnis ihm im Stiche ließ, so half er sich damit, dass... (Th.



Mann)

c) irgeneine Sache aufgeben, die Hand von etwas lassen

Er war nicht der Mann, eine Sache im Stich zu lassen, zu der er einmal ja gesagt hat (L.Feuchtwanger)

d) j-m keine Aufmerksamkeit schenken

Die Mutter und die Schwester hatten die Köpfe gesenkt und nickten, ... ließen ihn jetzt gänzlich im Stich und Schließen wirklich ein (G.Keller)

e) j-m die Treue brechen

Als hätte sie Geschenke wirklich im Stich gelassen, empfing sie ihn nach der Arbeit mit ausgeklügelten Mühen, um die erträumte Untreue wettzumachen. (A.Seghers)

f) nichts geben, nicht helfen

Allein bei den Mesophyten läßt uns die Erfahrung noch fast im Stich. (H.Lundegårdh)

(Qarang:8. 199-200)

Yana shunisi e'tiborliki, og'zaki so'zlashuv nutqida bir so'zning detonativ va konnatativ ma'nolari ostida turli xil frazemalarni ham hosil qilish mumkin. Masalan, "Fuß" so'zi bilan yuzaga keladigan quyidagi iboralarning semantik ma'nolariga e'tibor qarataylik:

zu Fuß gehen - piyoda yurmoq;

mit beiden Füßen fest auf der Erde stehen = kein Träumer sein - o'zining qat'iy fikriga ega bo'lmoq;

auf eigenen Füßen stehen - mustaqil bo'lmoq, ota-onasiga qaram bo'lmaslik;

(irgendwo) (festen) Fuß fassen = einen festen Platz in einem System, einer neuen Umgebung bekommen - biror bir tizimda yoki tevarak-atrofdagi ishonchli o'ringa ega bo'lmoq;

auf freiem Fuß sein = nicht im Gefängnis sein - hibsdagi bo'lmaslik, "erkin qush"

bo'lmoq;

auf großem Fuß(e) leben = so (verschwunderisch) leben, dass man zu viel Geld ausgibt - ko'p pulga asoslangan maishatli hayotda yashamoq;

mit j-m auf gutem Fuß(e) stehen = sich gut mit j-m vertragen - kim bilandir apoq-chapoq bo'lmoq; kim bilandir yaxshi chiqishmoq;

kalte Füße bekommen (kriegen) = einen Vorsatz, ein Ziel aufgeben, weil man plötzlich Angst vor dem Risiko bekommt - havf-xatar oldidan paydo bo'luvchi qo'rqish ostida o'zini yo'qotib qo'ymoq;

j-m auf den Fuß (die Füße) treten = j-m kränken, beleidigen - kimgadir azob bermoq, kimnidir hafa qilib qo'ymoq;

etwas mit Füßen treten = etwas grob mißachten, verletzen - nimagadir o'ta e'tiborsiz bo'lmoq;

in jemandes Fußstapfen treten = jemandes (beruflichem) Vorbild folgen - kimnandir (kasbiy) o'rnak olishga intilmoq. (Qarang: 9, 321)

## Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Magistrlik dissertatsiyamizning uchinchi bobi amaliy bob sanaladi. Mazkur bob „Zamonaviy nemis tili doirasida og'zaki so'zlashuv nutqi unsurlarining roli“ deb nomlangan va u o'z tarkibiga to'rt paragrafni jamlagan:

3.1. Nemis so'zlashuv nutqida so'zlardan foydalanish

3.2. Nemis so'zlashuv nutqi shakllanishiga boshqa tillardan o'zlashgan lug'aviy birliklarning ta'siri

3.3. Nemis yoshlar tilidagi lug'aviy birliklarning umumiy tavsifi

3.4. Nemis so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi boshqa leksik va frazeologik unsurlar

Bobning birinchi paragrafida biz nemis so'zlashuv nutqida ko'pchilik tomonidan ishlatiladigan so'z va birikmalarni yozuvchi Ludvig Thomaning „Lausbubengeschichten“ asaridan keltirilgan misollar asosida struktural va semantik jihatdan tahlil qilib chiqdik. Mazkur bobning ikkinchi paragrafida esa nemis so'zlashuv nutqidagi lug'aviy birliklarning qo'shni davlat tillari hisobiga derivativ rivojlanishi to'g'risida ma'lumot berdik. Uchinchi paragrafda hozirda keng jamoatchilik nazarida bo'lgan yoshlar tili haqida fikr bildirdik va nemis yoshlari tomonidan keng qo'llaniladigan so'z va iboralarni „Wörterbuch der Jugendsprache“ ga asosan ma'lum bir tizimga solishga harakat qildik. Va nihoyat to'rtinchi paragrafda nemis so'zlashuv nutqida qo'llaniluvchi boshqa leksik unsurlar, jumladan dialektlar, vulgar so'zlar, varvarizmlar, atgot va jargonlar, shuningdek, so'zlashuv nutqida ko'p ishlatiladigan turg'un so'z birikmalarini manbalarga tayangan holda tavsiflab chiqdik.

## XULOSA

Biz o'z magistrlik dissertatsiyamizda nemis so'zlashuv nutqining o'ziga xos xususiyatlariga, shuningdek, nemis so'zlashuv nutqida keng qo'llaniladigan so'zlar va frazeologik birikmalarning struktural-semantik tahliliga e'tibor qaratdik. Ish uch bob, 11 paragrafdan iborat bo'lib, dastlabki bobda biz nutq uslublarining turlariga qisqacha to'xtalib o'tdik va bu nutq uslublarining har birida qo'llaniladigan so'z va iboralar hamda ularning uslubiy betaraf so'zlardan farqlari borasida fikr bildirdik. Ishning ikkinchi bobida esa nemis so'zlashuv nutqining paydo bo'lishi va fonetik, leksik, grammatik, sintaktik derivatsiyalar asosida taraqqiy etishi o'rganilib chiqildi. Magistrlik dissertatsiyamizning uchinchi bobi amaliy bob vazifasini o'taydi. Bu bobda biz zamonaviy asarlar va lug'atlar yordamida nemis so'zlashuv nutqidagi keng qo'llaniluvchi unsurlarni struktural-semantik jihatdan tahlil qilib, ularni ma'lum bir tizimga solishga harakat qilib ko'rdik.

Xulosa sifatida shuni qayd etib o'tishimiz mumkinki, boshqa tillardagi so'zlashuv nutqlari kabi nemis so'zlashuv nutqi ham adabiy tildan keskin farq qilar ekan. Ya'ni, bu nutq asosan og'zaki tarzda ijtimoiy-maishiy sohalarda ishlatilishi, so'z qo'llashdagi erkinlik tamoyili, gap bo'laklarining o'rnini istagancha almashtirish, unutilgan so'z yoki birikmalarni gap oxirida keltirish yoki alohida gap sifatida ifoda etish, asosan so'zlarni qisqartirish hamda sodda gaplar yordamida fikrni bayon etishga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanar ekan.

Nemis so'zlashuv nutqida keng qo'llaniladigan so'z va iboralar tahlili shuni ko'rsatadiki, aynan og'zaki so'zlashuv nutqida so'zlovchi va tinglovchi shaxsning tez va oson muloqotga kirishishi asosiy vazifasini bajaradi. Shu sababli ham nemis so'zlashuv nutqining asosiy lug'at boyligi sifatida lug'aviy birliklarning ko'pincha ko'chma ma'noda ishlatilishi yoki noadabiy qatlam doirasidagi so'zlardan tarkib topishini keltirishimiz mumkin.

Ishni yozish mobaynida yana shunga amin bo'ldikki, nemis so'zlashuv nutqida

ham ko'plab so'z va iboralar matn yoki fikrdagi badiiy buyoqdorlik, ekspressivlikni kuchaytirish uchun qo'llanilar ekan. Masalan, „stark, besonders, furchtbar, schrecklich, gottlob, abheulich, dumpf, kaputt“ kabi ekspressiv so'zlar yordamida ijobiy va salbiy tomondan ma'no kuchaytirilishining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Shuni ham qayd etib o'tishimiz lozimki, har qanday tilning, shu jumladan bu tildagi so'zlashuv nutqining rivojlanishida, tabiiyki, qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday aloqalar tufayli ma'lum bir til doirasida o'zlashgan so'zlar so'zlashuv nutqida o'z shaklini qisman o'zgartirgan holda yoki yangi tilning iste'moldagi qonun-qoidalariga, kundalik so'zlashuv nutqining me'yorlariga moslashgan holda paydo bo'ladi. Albatta bunday o'zlashgan so'zlarning derivativ shakllarini zamonaviy nemis so'zlashuv nutqida ham ko'plab uchrashimiz mumkinligini e'tirof etib o'tishimiz joiz. Ma'lumki, nemis so'zlashuv nutqi o'z tarixiy taraqqiyoti davomida asosan lotin tili, yunon tili, qo'shni mamlakat tillaridan esa frantsuz va ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarning kishilar orasida, hududiy tomondan turlicha ifodalanish hisobiga boyib borgan. Shu bilan birga zamonaviy nemis so'zlashuv nutqining, xususan nemis yoshlar tilining tipik xususiyatlaridan biri sifatida fan-texnika taraqqiyoti natijasida ko'proq ingliz tili lug'at boyligining nemis aholisi qatlamiga moslashtirilgan ko'rinishlarini alohida ta'kidlab o'tishimiz kerak bo'ladi. Jumladan „baby“ (go'dak), „Karroten“ (sabzi), „jobben“ (ishlamoq), „mailen“ (elektron pochta jo'natmoq), „cool“ (ajoyib, zo'r), „Shopping“ (xarid qilish), „Girlfreund“ (Freundin), „Boyfreund“ (Freund)... kabi asli inglizcha so'zlarning nemis so'zlashuv tiliga moslashgan holda keng tarzda ishlatilishi ishda biz tomonimizdan atroflicha o'rganilib chiqildi va tahlil etildi.

Ishda yana, bir tildan ikkinchi bir tilga o'zlashgan so'zlar doirasidagi assimillatsiya turlariga ham e'tibor qaratildi, ya'ni nemis tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarning nemis tili qonun-qoidalariga moslashuviga ko'ra quyidagi assimillatsiya turlari yetakchi omil vazifasini o'tashi qarab chiqildi:

- a) morfologik assimiliatsiya (bunda o'zlashgan so'z asl holidan asosan morfologik qo'shimchalar hisobiga farqlanadi);
- b) orfografik assimiliatsiya ( bu o'rinda o'zlashgan so'zlardagi ma'lum bir harflar yangi tilning tovush tizimiga qarab o'z shaklini o'zgartiradi);
- d) to'liq assimiliatsiya (bunday so'z o'zlashuvida so'z o'z holicha, hech bir grammatik o'zgarishlarsiz qabul qilinadi);
- e) noto'liq assimiliatsiya (assimiliatsiyaning bu turida urg'u tushushi asosiy ahamiyat kasb etadi).

Nemis so'zlashuv nutqi yana o'zining turli xil ichki ko'rinishlari bilan ham alohida ajralib turadi. Jumladan, ishni yoshish bilan biz og'zaki nemis tili (Mundsprache) tushunchasi ostida „Umgangssprache“ (noadabiy qatlamdagi nemis muloqot tili); „Jugendsprache“ (nemis yoshlari tili), „Halbmundart“ (yarim sheva so'zlari); „Landsprache“ (nemis qishloq aholisi tili); „Stadtsprache“ (nemis shar aholisi tili); „Verkehrssprache“ (ko'chada ishlatiladigan so'zlashuv nutqi); „Alltagssprache“ (kundalik so'zlashuv tili); Haussprache“ (oila doirasida ishlatiladigan nemis tili) kabi tushunchalar umumiyashtirilishining ham guvohi bo'ldik.

Shuni qayd etib o'tishimiz lozimki, nemis so'zlashuv tilining lug'at boyligi uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida turli hududiy dialektlar, masalan bavar, shvab, alleman, frank, sakson, frits dialektlari kabi xalq shevalarining ichki qonun qoidalari asosida yuzaga kelgan. Shu sababli ham Germaniya davlatining diyarli har bir okrugi o'zining mahalliy dialektini saqlab qolish bilan birga, ular o'ziga xos og'zaki so'zlashuv nutqiga egadirlar. Ishda rus olimi V.Jirmunskiy "kartoshka" so'zining nemis so'zlashuv nutqida 27 xil ma'nodoshi mavjudligini qayd etganligini ta'kidlab o'tishimiz ham bu fikrimizning yaqqol dalilidir. Shu bilan birga magistrlik dissertatsiyamizda ayrim lug'aviy birliklarning hozirgi kunda ham Germaniyaning shimoliy va janubiy hududlarida qo'llaniladigan so'zlashuv nutqlarida ikki xil nom bilan aytilishiga alohida e'tibor qaratdik. Masalan:

janubda

shimolda

Lefze	Lippe
Gestade	Ufer
Nachen	Kahn
Mädel	Mädchen
Geiß	Ziege
Metzger	Fleischer
Bube...	Knabe ...

Shuningdek, magistrlik dissertatsiyamizda og'zaki so'zlashuv nutqida nafaqat alohida olingan, balki yana yaxlit ko'chma ma'noli iboralar hamda tasviriy ifodalarga hamto'xtalib o'tishimizga to'g'ri keldi. Zero, kishilar o'zlarining kundalik nutqida suhbatdoshlari bilan yanada yaqin munosabatda bo'lish, o'z fikrlarini ularga sodda, lunda bayon etish maqsadida o'z hududida yashovchi odamlarga tushunarli bo'lgan turg'un so'z birikmalari va tasviriy ifodalardan ham keng foydalanishadi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida biz nemis xalqining so'zlashuv nutqida keng qo'llaniladigan ibora va tasviriy ifodalarga quyidagilarni kiritish mumkinligiga ishonch hosil qildik:

„den Mund halten; auf die Beine kommen; Spaß machen: große Augen machen; weit und breit; unter die Haube bringen; mit Kind und Kegel; j-m auf die Finger sehen; lange Beine haben; den Kopf verlieren; die Nase stecken; j-m einen Floh ins Ohr setzen; blau machen; auf der Bärenhaut liegen; Schwein haben; die Katze im Sack kaufen; um ein Butterbrot kaufen; unter vier Augen“ va boshqalar.

Shunisi e'tiborga molikki, nemis og'zaki so'zlashuv tilida uchraydigan bunday ibora va tasviriy ifodalarga ma'nodosh yoki semantik jihatdan yaqin bo'lgan ifodalarning aksariyati boshqa tillarda, jumladan o'zbek tilining kundalik so'zlashuv nutqida ham uchrar ekan. Masalan, ishda o'zbek tilidagi „bola-baqراسi bilan“ (mit Kind und Kegel), „burnini tiqmoq“ (die Nase stecken), „panja orasidan qaramoq“ (auf die Finger sehen) kabi iboralarning nemischa muqobillariga o'zaro solishtirilishi

natijasida biz har qanday so'zlashuv nutqi bevosita xalqning turmush tarzidan kelib chiqishiga yana bir bor ishonch hosil qildik.



## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **Prezident asarlari, hukumat qonun va qarorlari**

1. Каримов И.А. Подготовка образованного и интеллектуального развития поколения – как важнейшее условие устойчивого развития и модернизации страны” “Народное слово” gazetasi, 2012 yil, 18-fevral.
2. Ўзбекистон Республикаси «Таълим тўғрисидаги» қонуни. –Тошкент, 1997.

### **Ilmiy adabiyotlar**

1. Wolfram Balor. Form und Funktion fremder Suffixe im Gegenwartdeutschen. W. Baier. 2007.
2. Eva Neuland. Jugendsprache – Bedrohung oder Bereicherung der Standardsprache. – München, 1997.
3. Stephan Barbour, Patrick Staverson. Variation im Deutschen: soziolinguistische Perspektiven. –Berlin, 1998.
4. Susanne Augenstein. Funktionen von Jugendsprache. Max Niemeger Verlag. – Tübingen, 1998. S. 288.

### **Darslik va o'quv qo'llanmalar, lug'atlar**

1. Alexandra Berger. Redewendungen, Sprichwörter & Co. Kohlverlag. 1. Auflage, 2010.
2. Cristiane Schülter. Da liegt der Hase im Pfeffer / Redewendungen und ihre Herkunft. Gondrom Verlag GmbH. –Bindlach, 2005.
3. Christine Freise-Wonka. Sprichwörterliches Bamberg. Heinrichs-Verlag GmbH. –Bayerische Verlagsanstalt. –Bamberg, 2009. S.36.
4. Graf A.E. Idiomatic Redewendungen und Redensarten der russischen und

- der deutschen Sprache. VEB Deutscher Verlag der Wissenschaften. –Berlin, 1956.
5. Hermann Ehmann. Endgeil. Das voll korrekte Lexikon der Jugendsprache. Verlag C.H.Beck. –Nöttingen, 2006. S.180.
  6. Hans Bahmer. Dem geschenkten Gaul schaut man nicht ins Maul / Neue tierische Redewendungen –wahrhaftig erklärt. Verlag GmbH, –München, 2007.
  7. Johann Christian Siebenkees. Deutsche Sprichwörter mit Erläuterungen. Georg Olms Verlag. – Hildesheim -Zürich –New York, 2011. S. 136.
  8. Iskos A., Lenkova A. Deutsche Lexikologie, -Moskau, 1970, S.296.
  9. Langenscheidt. Power Wörterbuch Deutsch. –München, 2009. S.1122.
  10. Lexikon der schönsten Sprichwörter und Zitate. Herausgegeben von Kristian S.Weidenfeld. Bassermann Verlag. – München, 2002. S. 400.
  11. Nazarov P. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar / qisqacha paremiologik lug'at. –Samarqand, 2001. 52-bet.
  12. Stepanova M., Chernischova I. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. 2. Auflage. –Moskau, 1986.
  13. Textor A.M. Sag es treffender (Wörter für Büro, Schule, Haus) 2.Auflage. Rowohlt. –Hamburg, 1989.
  14. Voll konkret: das neueste Lexikon der Jugendsprache. 2001. S. 160.
  15. Wörterbuch der Jugendsprache. Sammelband. Pons GmbH. – Stuttgart, 2011. S.288.
  16. Wörterbuch der Jugendsprache (Deutsch-Englisch-Französisch- Spanisch. Ernst Kleff Sprachen. GmbH. 1. Auflage. –Stuttgart. 2012. S.128.
  17. Жирмунский В.М. История немецкого языка. –М. 1965.
  18. Кухаренко В.А. Интерпретация текста / Учебное пособие. –М. : Просвещение, 1988. С.192.
  19. Лепинг Е.И., Страйова Н.П. Большой немецко-русский словарь. И 2-х томах. –М. : Русский язык, 1980.

20. Рахманов И.В., Минина Н.М. Немецко-русский синонимический словарь. –М. : Русский язык, 1983. С. 704.
21. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти. –Тошкент, 2004. 8-том. 704-бет.

### **Ilmiy anjuman tezislari va ilmiy jurnallardagi maqolalar**

1. Nazarov P.J. Nutqiy vaziyatlarda ma'nodosh so'zlarning qo'llanilishiga doir. Anjuman materiallari. - Samarqand, 2007.
2. Nazarov P.J. Lug'at boyligini oshishida o'zlashgan so'zlarning tutgan o'rni. Anjuman materiallari. - Samarqand, 2008.
3. Nazarov P.J. O'g'zaki so'zlashuv nutqining o'ziga xos belgilari borasida. Anjuman materiallari. - Samarqand, 2009.
4. Nazarov P.J. O'zak morfemaning so'z derivatsiyasida tutgan o'rni. Anjuman materiallari. - Samarqand, 2010.

### **Internet saytlari**

1. books.google.de
2. scholar.google.de
3. florian-seifert.de. Die Digitale Bibliothek NRW.
4. <http://de.wikipedia.org/wiki/Lehnwort#Entlehnungen>

### **Badiiy adabiyotlar**

1. Ludvig Thoma. Lausbubengeschichten / Tante Frieda. –Stuttgart,1993. S. 246.
2. Айтматов Ч. Оқ кема. –Тошкент, -1980.
3. Айтматов Ч. Оқ кема. – Тошкент, -2006.